



ANKARA

HACI BAYRAM VELİ ÜNİVERSİTESİ
LİSANSÜSTÜ EĞİTİM ENSTİTÜSÜ

**BATI DİLLERİNDEN ALINAN YABANCI
KELİMELERE ALTERNATİF
KARŞITLIKLAR BULMA VE ALINAN
KELİMELERİ DİLİN SÖZ VARLIĞINA
DAHİL ETME SORUNU ÖZBEK VE TÜRK
DİLLERİNİN ÖRNEĞİNDE**

Nurjahon ABDULLAYEVA

Tez Danışmanı

Prof. Gulchehra RİXSİYEVA

YÜKSEK LİSANS TEZİ

DİL BİLİMİ VE TÜRK LEHÇELERİ

ANABİLİM DALI

(TAŞKENT DEVLET ŞARKŞINASLIK ÜNİVERSİTESİ ORTAK) DİL

BİLİMİ VE TÜRK LEHÇELERİ BİLİM DALI

HAZİRAN, 2024



**BATI DİLLERİNDEN ALINAN YABANCI KELİMELERE
ALTERNATİF KARŞITLIKLAR BULMA VE ALINAN
KELİMELEİRİ DİLİN SÖZ VARLIĞINA DAHİL ETME
SORUNU ÖZBEK VE TÜRK DİLLERİNİN ÖRNEĞİNDE**

Nurjahon ABDULLAYEVA

YÜKSEK LİSANS TEZİ

DİL BİLİMİ VE TÜRK LEHÇELERİ

ANKARA HACI BAYRAM VELİ ÜNİVERSİTESİ

LİSANSÜSTÜ EĞİTİM ENSTİTÜSÜ

HAZİRAN, 2024

ETİK BEYAN

Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi Tez Yazım Kurallarına uygun olarak hazırladığım bu tez çalışmasında; tez içinde sunduğum verileri, bilgileri ve dokümanları akademik ve etik kurallar çerçevesinde elde ettiğimi, tüm bilgi, belge, değerlendirme ve sonuçları bilimsel etik ve ahlak kurallarına uygun olarak sunduğumu, tez çalışmasında yararlandığım eserlerin tümüne uygun atıfta bulunarak kaynak gösterdiğimi, kullanılan verilerde herhangi bir değişiklik yapmadığımı, bu tezde sunduğum çalışmanın özgün olduğunu, bildirir, aksi bir durumda aleyhime doğabilecek tüm hak kayıplarını kabullendiğimi beyan ederim.

Nurjahon ABDULLAYEVA

08.06.2024

TEZ ONAY SAYFASI

Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi Lisansüstü Eğitim Enstitüsü ve Taşkent Devlet Şarkşınashık Üniversitesi, Dil Bilimi ve Türk Lehçeleri Bilim Dalı Yüksek Lisans Programı öğrencisi Nurjahon Abdullayeva tarafından hazırlanan Batı dillerinden alınan yabancı kelimelere alternatif karşılıklar bulma ve alınan kelimeleri dilin söz varlığına dahil etme sorunu özbek ve türk dillerinin örneğinde Başlıklı tez çalışması 10/06 /2024 tarih ve saatinde yapılan tez savunma sınavında aşağıdaki jüri tarafından OY BİRLİĞİ ile YÜKSEK LİSANS TEZİ olarak KABUL edilmiştir.

	Kabul	Ret
Başkan (Prof. Yorqin Odilov-Öz.Res.FA):	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Üye (Prof. Şorustam Şomusarov-TDŞÜ):	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Üye (Prof. Hayrulla Hamidov-TDŞÜ):	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Üye (PhD. Gulşoda Yunusova-TDŞÜ):	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Üye (PhD.Muhammadcon Aripov-TDŞÜ):	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

BATI DİLLERİNDEN ALINAN YABANCI KELİMELERE ALTERNATİF
KARŞITLIKLAR BULMA VE ALINAN KELİMELERİ DİLİN SÖZ VARLIĞINA DAHİL
ETME SORUNU ÖZBEK VE TÜRK DİLLERİNİN ÖRNEĞİNDE
(Yüksek Lisans Tezi)

Nurjahon ABDULLAYEVA

ANKARA HACI BAYRAM VELİ ÜNİVERSİTESİ
LİSANSÜSTÜ EĞİTİM ENSTİTÜSÜ
HAZİRAN, 2024

ÖZET

Bu yüksek lisans çalışmasında yabancı sözcükler, dildeki önemi, özümleme ilkeleri, yabancı sözcüklere karşılıklar (alternatifler) bulunarak dil düzeyine getirilmesi, dilin yabancı sözcüklerden temizlenmesi ve dilin saflığının korunmasına bakış açısı ve sorunları ele alınmaktadır. Özbekçe dili ve Türk dilleri örneği üzerinden karşılaştırmalı bir analiz yapılmıştır. Ödeneklerin dil gelişimi ve gelişimi alanındaki önemi, özellikle Özbek dilinin yakın tarihteki sözcük yapısı, özümsemiş katmandaki sözcüklerin içindeki payı ve buna bağlı değişimler örnekler yardımıyla incelenir, Özbek ve Türk dillerinin farklı dönemlerde dilin saflığını koruma çaba ve çabaları kısmen incelenmiş, bu yolda sağlanan başarılar, eksiklikler ve bunlara sebep olan faktörler tartışılmıştır.

BilimKodu : 70230101

Anahtar Kelimeler : Yabancı kelimeler, dilsel çeşitlilik, dilin saflığı, iç ve dış kaynaklar, tarafsız sözlük, dilin millileştirilmesi, alternatif kelimeler (milli karşılıklar)

Sayfa Adedi : vi+113 s.

Tez Danışmanı : Prof. Gulchehra RİXSİYEVA

THE PROBLEM OF FINDING ALTERNATIVE OPPOSITES TO FOREIGN WORDS
TAKEN FROM WESTERN LANGUAGES AND INCLUDING THE TAKEN WORDS
INTO THE VOCABULARY OF THE LANGUAGE IN THE EXAMPLE OF UZBEK AND
TURKISH LANGUAGES

(M.Sc. Thesis)

Nurjakhon ABDULLAEVA

ANKARA HACI BAYRAM VELI UNIVERSITY
THE INSTITUTE OF GRADUATE STUDIES

ABSTRACT

In this master's work, foreign words, their importance in the language, principles of assimilation, finding national alternatives to foreign words and bringing them to the level of the language, the perspective and problems of cleaning the language from foreign words and maintaining the purity of the language in Uzbek and a comparative analysis is made on the example of Turkish languages. Importance of appropriations in the field of language development and development, in particular, the lexical composition of the Uzbek language in recent history, the share of words of the assimilated layer in it and its corresponding changes are studied with the help of examples, learn the Uzbek and Turkish languages Efforts and attempts to keep the purity of the language in different eras are partially analyzed, the achievements and shortcomings in this way and the factors that caused them are discussed.

Science Code : 70230101

Key Words : Borrowed words, linguistic diversity, language purity, internal and external sources, neutral lexicon, nationalization of the language, alternative words.

Page Number : vi+113 p.

Supervisor : Prof. Gulchehra Rikhsiyeva

İÇİNDEKİLER

Sayfa

MUNDARIJA

I BOB. DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR MASALASI. ULARNI O‘ZLASHTIRISH QOIDA VA TAMOYILLARI.....	12
1.1. O‘zlashgan so‘zlar tushunchasiga ta’rif. Uning mohiyati va ahamiyati.....	12
1.2. Xalqaro tillarda o‘zlashgan so‘zlar va ularning o‘zlashtirilish tamoyillari.....	16
1.3. Turkiy tillardan chet tillarga, xususan, rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar va ularning o‘zlashish tamoyillari.....	29
Bob bo‘yicha xulosalar.....	32
II BOB. O‘ZBEK VA TURK TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHMALARNING O‘RNI, SO‘Z O‘ZLASHTIRISH QOIDA VA TAMOYILLARI.....	35
2.1. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashuvi masalasi va uning o‘rganilishi.....	35
2.2. Chet so‘zlarning o‘zbek tilshunosligidagi tasnifi.....	39
2.3. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashuvi xususiyatlari.....	44
2.4. Turkcha lug‘atning ilk va so‘nggi nashrlaridagi g‘arb tilidan o‘zlashgan so‘zlar tadqiqi.....	50
Bob bo‘yicha xulosalar.....	57
III BOB. O‘ZLASHGAN SO‘ZLARGA TILNING ICHKI IMKONIYATLARI ASOSIDA MUQOBIL IFODALAR TOPISH (O‘ZBEK VA TURK TILLARI MISOLIDA).....	59
3.1. O‘zbekistonda o‘zlashgan so‘zlarga muqobil ifodalar topish bo‘yicha qilingan sa’y-harakatlar. Atamashunoslik qo‘mitasi faoliyati va natijalari.....	59
3.2. Turkiyada Turk Tili Qo‘mitasi (Türk Dil Kurumu) tomonidan o‘zlashgan (begona) so‘zlarga muqobil ifodalar topish bo‘yicha olib borilgan harakat va islohotlar.....	68
3.3. O‘zbek va turk tillarida tilni milliyashtirish jarayonining istiqboli va muammolari.....	74
Bob bo‘yicha xulosalar.....	81
IV BOB. O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARGA MUQOBIL IFODALAR TOPISH VA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNI TILNING LUG‘AT BOYLIGIGA KIRITISH BO‘YICHA AMALIY TAKLIFLAR.....	83
4.1. Turk tili qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan muqobil ifodalar lug‘ati.....	84
4.2. Turk va o‘zbek tillari sathidagi mushtarak o‘zlashmalar.....	90
4.3. G‘arb tilidan o‘zlashgan so‘zlarga o‘zbekcha muqobillar lug‘ati.....	94
Bob bo‘yicha xulosalar.....	100
UMUMIY XULOSALAR.....	102
ILOVA.....	107
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	110

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi shundaki, unda qiyosiy tadqiq usuli orqali ikki qardosh til hisoblanuvchi o‘zbek va turk tili leksik sathidagi o‘zlashmalar, ularning tilga o‘zlashish jarayoni, usul va tamoyillari tadqiq qilinadi. G‘arb tilidan kirib, bu ikki til lug‘at sathida muqim o‘rnashib qolayotgan “ajnabiy” so‘zlar, ularning tildagi ahamiyati, til taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy jihatlari haqida mulohazalar yuritiladi. O‘zlashmalarni tilning ichki imkoniyati asosida muqobillashtirish, ya’ni tilni milliyashtirish jarayonining istiqboli va bu yo‘ldagi mavjud muammolar, to‘siqlar tahlil qilinadi.

Tilimizda hozirgacha nisbatan kam o‘rganilgan ushbu soha, ya’ni o‘zlashmalar va ularni tilning ichki imkoniyati asosida muqobillashtirish, ularni tilning lug‘at boyligiga kiritish masalasi bir qator xorij tillari va qolaversa, turk tili tajribasi misolida o‘rganilib, o‘zbek tili bilan o‘zaro qiyosiy ravishda tadqiq qilinadi. “Tildagi o‘zlashmalarni muqobillashtirish tilni majburiy bir tarzda izolyatsiyalash, til globalizatsiyasini to‘xtatish va yoki nazorat qilish, tilni sun’iy ravishda “burab chiqarilgan” mujmal ifodalar bilan zo‘rma-zo‘raki milliyashtirish, uni qoliplab, chek-chegaralab qo‘yish hisobiga bo‘lmasligi kerak”, degan qat’iy va biroz tanqidiy pozitsiyadagi shaxsiy fikr va mulohazalar bildiriladi.

O‘zlashmalarga teng keluvchi so‘zlarni “ichki muqobillar” hamda “milliy qarshiliklar” atamasi ostida berish taklifi ilgari suriladi. Shuningdek, o‘zlashmalarni tildagi uzil-kesil maqomini aniqlab olish va ularni tilning lug‘at boyligiga kiritish zarurligi ta’kidlanadi. Ularni o‘zlashtirishning yakdil tamoyili ishlab chiqilishi va ushbu o‘zlashma so‘zlar va ularga teng keluvchi muqobil ifodalarning imlo va izohli lug‘atlari yaratilishi lozimligi bugungi o‘zbek tilshunosligi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekanligi haqida to‘xtalib, amaliy taklif va tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Mavzu doirasidan kelib chiqqan holda magistrlik dissertatsiyasining obyekti deb o‘zlashma so‘zlarni, predmeti deb esa ularga teng keluvchi muqobil ifodalar (alternativalar¹), chet tilidan kirgan so‘zlarning o‘zlashish usullari va tamoyillari, muqobil so‘zlarni tilning ichki imkoniyati asosida yaratish va ularni faol til sathiga olib kirish borasidagi turli jarayon va tajribalarni ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi o‘zbek va turk tillari sathidagi g‘arb tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga muqobil ifodalar topish va ularni tilning lug‘at boyligiga kiritish masalasini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari esa quyidagilardan iborat:

1. O‘zbek va turk tillari leksik sathidagi faol qo‘llaniluvchi g‘arb tilidan o‘zlashgan so‘zlar (o‘zlashmalar)ni topish. (Bunda manbalar etib, vaqtlı matbuot,

¹ Muallif izohi: keyingi o‘rinlarda *ichki muqobillar* va *milliy qarshiliklar* atamasi ostida ham keladi.

internet nashrlari, shuningdek, o‘zbek va turk tillarining eng so‘nggi nashrdagi imlo va izohli lug‘atlari olindi). Ularning o‘zlashish jarayonini tahlil qilish.

2. Saralab olingan o‘zlashmalarni leksik-morfologik jihatdan tahlil qilish. Ularning talaffuz va qo‘llanilish, shuningdek, nolisoniy omillar (madaniy, ijtimoiy-psixologik va b.qa) ga ko‘ra afzallik va ustuvorlik jihatlarini o‘rganish, tadqiq qilish.

3. Ushbu o‘zlashmalarning qiyosan tadqiq qilinayotgan o‘zbek va turk tillaridagi muqobillarini topish (bunda turli yillarda “atamalarni milliyashtirish”, “tilni yod so‘zlardan tozalash” nomlari ostida kechgan jarayonlar ko‘zdan kechirish, undagi erishilgan “natija”larni asosiy instrument (vosita) sifatida olish va o‘zaro solishtirish.

4. Ikki tildagi ayni o‘zlashmalar va ularning taklif etilgan (yoki biz tomonimizdan taklif etiladigan) muqobil ifodalaridagi yasalish va ma‘no jihatdagi o‘xshashlik va farqliliklar, tushunilish va talaffuzga ko‘ra (o‘zining qarshi tildagi muqobiliga ko‘ra) afzallik va qulayliklarini o‘zaro qiyosan tahlil qilish;

5. Tahlillar asosida ikki til uchun ham birdek, yoki umumiy ma‘noda tushunarli bo‘lgan (imlo va talaffuzdagi shartli farqlarni istisno qilgan holda, albatta) muqobil so‘zlar (g‘arb tilidan o‘zlashgan so‘zlarga milliy qarshiliklar) lug‘atini tuzish; va kelgusidagi ilmiy faoliyatimizda mazkur magistrlik dissertatsiyasi va ushbu lug‘at asosida ilmiy-uslubiy qo‘llanma yaratish bo‘yicha zarur poydevorni yaratib olish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Avvalo, ushbu magistrlik ishining ilmiy-amaliy ahamiyati juda dolzarbligini yana bir bor ta‘kidlab o‘tishni istardik. Shu vaqtgacha mavzuga doir juda ko‘plab adabiyotlar o‘rganildi, tahlil qilindi. Nisbatan keyingi vaqtlarda yozilgan, hatto xorij nashrlarida nashr etilgan bir necha o‘nlab maqolalar, tezislari ko‘zdan kechirildi. Va xulosaga kelindiki, sohada keyingi yillarda sezilarli o‘zgarishlar, yangi tadqiqot ishlari deyarli sodir bo‘lmapti.

Ilmiy izlanish nomi ostida chop etilgan maqolalar asosan o‘zlashma so‘zlarning nazariy tomonlarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zlashma so‘zlar, shu jumladan, olinma so‘zlar, neologizmlar, okkazionalizmlarning amaliy tadqiqi, ularning o‘zlashganlik, til sathiga singganlik darajasi deyarli o‘rganilmaganligini, atroflicha tahlil qilinmaganligini aniqlandi;

Til sathiga kirib kelayotgan bunday so‘zlarning o‘zlashish tamoyillari, til iste‘molchilari tomonidan qo‘llanilish borasidagi ustuvorliklar va bularga sabab bo‘luvchi lisoniy, shuningdek, ijtimoiy-psixologik omillar ustida hali qilinadigan ancha-muncha ishlar borligi kuzatildi.

Ishdagi asosiy yangilik milliy tilimiz va unga qiyosiy ravishda turk tilining lug‘at tizimi tarkibiy qismlaridagi o‘zlashma so‘zlarga mutlaqo boshqa aspektdan turib qarash, o‘zlashma so‘zlarning o‘rganilishi va tilning ichki imkoniyati asosida muqobillashtirilishi jarayonini chuqur tahlil qilindi va bular asosida ayrim taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

O‘zlashmalar, o‘zlashayotgan so‘zlar haqida nafaqat ilmiy-nazariy ma’lumotlar berildi, balki ular tilimizning lug‘at boyligini va ifoda qudratini oshiruvchi muhim leksikologik vosita ekanligi aniq misollar asosida tadqiq qilindi.

Shuningdek, tilni pala-partish ravishda egallab olayotgan yangi davr o‘zlashmalarini muqobillariga almashtirish bo‘yicha turli davrdagi harakat va ular orqali to‘plangan tajribalar asosida amaliy taklif va ishlanmalar berildi. Mazkur mavzuga doir dastlabki fikr-mulohazalar, amaliy taklif va ishlanmalar hamda mazkur dissertatsiyaning yozilish jarayoni davridagi tasavvur, tushuncha, fikr va shaxsiy xulosalar shu paytgacha chop qilingan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-ommaviy maqolalarda ilm ahli e’tiboriga havola etildi.

Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari. O‘zbek va turk tillari uchun nisbatan yangi atamalar, til sathiga nisbatan yangi kirib kelayotgan o‘zlashish arafasidagi so‘zlarning muqobillarini topish, tilni majburiy bir tarzda milliyashtirish, sun’iy yasalmalar bilan uning estetik ko‘rinishi hamda ta’sirchanligiga, shuningdek, leksik rang-barangligiga putur yetkazishni emas, balki o‘z foydalanuvchisiga qulay va boy lug‘at sathini, lisoniy variativlikni taqdim qilish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim degan uzil-kesil pozitsiyani tanlagan holda, o‘z shaxsiy qarash va mulohazalarimizga tayanib, mazkur sohada ham fundamental, ham amaliy taklif va ishlanmalar mavjud bo‘lgan qiyosiy tadqiqot ishini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Ushbu tadqiqot mobaynida quyidagi olimlar, xususan: V.N.Yarseva², Maruzo Jyul³, M.A.Brayter⁴, L.P. Krisin⁵, T.T.Vartolomey⁶, D.I.Ginza⁷, F.Miklozix⁸, K.Xeller⁹, A.Jumaniyozov¹⁰, M.Mukarramov¹¹, I.Qo‘chqortoyev¹², F.Abdullayev¹³, Sh. Shoabdurahmonov¹⁴,

² В.Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.. М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 685.

³ Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов: Пер. с фр./ Предисл.В.А.Звегинцева. М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 104.

⁴ Брейтер М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-русистов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 423.

⁵ Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 340.

⁶ Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.

⁷ Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304-307.

⁸ Miklosich F. Uber Fremdworter. Archiv f ur slavische Philologie 1888 /11s. – P. 108.

⁹ Xeller K. Das Fremdwort in der deutschen sprache der Gegenwart. Leipzig 1966. – B. 260.

¹⁰ Jumaniyozov A. “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari”. Toshkent: 1982. – B. 144.

¹¹ Mukkaramov M. Badiiy stilda o‘zlashmagan so‘zlarning qo‘llanilishi “O‘zbek tili va adabiyoti” 1979, 4-son. – B. 16.

¹² Qo‘chqortoyev I. O‘zbek tili leksik semasiologiyasi va uning aktual masalalari - “O‘zbek tili va adabiyoti” 1982, 6-son. – B. 244.

¹³ Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi?. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972. – B. 460.

¹⁴ Shoabdurahmonov Sh. O‘zbekistonda tilshunoslikni rivojlantirishning aktual muammolari - “O‘zbek tili va adabiyoti” 1982, 5-son. – B. 284.

G‘.Abdurahmonov¹⁵, A.Nurmonov, A. Sobirov, N. Qosimova va b. qa.¹⁶, D.Aksan¹⁷, Z.Korkmaz^{18,19}, A. Jafero‘g‘li²⁰, A.S.Levend²¹ va boshqalarning o‘quv qo‘llanma, darslik va monografiyalariga, shuningdek, Fatih Erbay²², M.Yo‘lchiyeva, S.Abduxamidova, M.Omonova²³, M.Kosimova²⁴, I.Day²⁵, Z.Kuvonov^{26,27} kabilarning maqola va tezislariga, shuningdek, o‘zbek va turk tillarining imlo va izohli lug‘ati²⁸ hamda sohaga tegishli uslubiy qo‘llanmalar²⁹ga murojaat qilindi. O‘z ichiga o‘zlashmalar va ularga teng keluvchi muqobil ifodalarni qamrab olgan turli yillardagi ommaviy axborot vositalarining elektron va bosma nashrlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Ushbu ishda induktiv, statistik, qiyosiy-chog‘ishtiruv va tahlil metodlaridan foydalanildi. “Turkcha-O‘zbekcha izohli lug‘at“ (2018) va 6 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2023) nashrlaridagi g‘arb tilidan kirgan o‘zlashmalar³⁰, qisman jonli tilimizdan va vaqtlı matbuot nashrlaridan misollar to‘planilib, ular morfologik va semantik jihatdan tahlil qilindi. O‘zlashmalarni topish, yig‘ish, sinflash (klassifikatsiya qilish) ishlarida tilshunoslikda shu paytgacha qilingan nazariy ma‘lumotlarga asoslanildi, masalaga deduktiv yondashildi va yig‘ilgan o‘zlashmalarning morfologik, sintaktik va semantik tahlilida induktiv metoddan foydalanildi, oddiydan murakkab tomon yurildi, xususiylıkdan

¹⁵ Abdurahmonov G‘. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son. – B. 1-6.

¹⁶ Nurmonov A., A. Sobirov A., N. Qosimova N. va b. qa.. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013. – B. 202.

¹⁷ Doğan Aksan, Türkçenin Sözcüğü, Engin Yay., Ankara 1996. – S.126.

¹⁸ Zeynep Korkmaz, “Dilimizin Dünkü ve Bu Günkü Sorunları ve Çözüm Yolları”, Türk Dili Üzerine Araştırmalar, TDK Yay., Nu:629, C.1, Ankara 1995. – S. 868.

¹⁹ Zeynep Korkmaz, “Batı Kaynaklı Yabancı Kelimeler ve Dilimiz Üzerindeki Etkileri”, Türk Dili Üzerine Araştırmalar, TDK Yay., Nu:629, C.1, Ankara 1995. – S.948.

²⁰ Ahmet Caferoğlu, Türk Dili Tarihi, Enderun Kitabevi, C. II, İstanbul 1984, s. 4. 5 Ağâh Sırrı Levend, Türk Dilinde Gelişme ve Sadeleşme Evreleri, TDK Yay., Ankara 1972. – S.72.

²¹ Ağâh Sırrı Levend, Türk Dilinde Gelişme ve Sadeleşme Evreleri, TDK Yay., Ankara 1972, – S.72.

²² Fatih Erbay. Türkçe sözlük‘ün ilk ve son baskısındaki batı kökenli kelimelere dair. – S. 1-9.

²³ Yo‘lchiyeva M., Abduxamidova S., Omonova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. Maqola. CARJIS. Volume 2, Issue 1/ 2022. – B. 441.

²⁴ Kosimova M. “The history of word borrowing process in the uezbek and english languages”// Proceedings of Online International Conference on Advances in Scientific Research and Developments Organized by Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, August 8th, 2020, – P. 105.

²⁵ Дай И. “Займствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/ <https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya>. – С. 1-8.

²⁶ Kuvonov Z. Nemis tili lug‘ati tarkibidagi o‘zlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati// Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Google Scholar// www.carjis.org. ISSN:2181-2454. Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1.volume 1 issue 4/2021, – B.32-44.

²⁷ Kuvonov Z. M. “Die vorteile und nachteile der online-bildung”. Academic research in educational sciences 2.CSP1 conference 2 (2021): – P. 478-481.

²⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikkinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matabaa-ijodiy uyi. 2023.

²⁹ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.468.

³⁰ Muallif izohi: Bunda asosan til sathiga nisbatan yangi davrlarda kirib kelib o‘zlashayotgan so‘zlar tadqiqot obyektı sifatida tanlab olindi.

umumiylikka o‘tildi va amaliy misollarga tayanib shaxsiy (nazariy) fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: shu paytgacha mavzuga doir ilmiy ishlar yetarlicha chuqur, tarmoqlanib o‘rganilmaganligi, o‘zlashma so‘zlarning tilning lug‘at sathini ham boyituvchi hamda noo‘rin qo‘llanila boshlanganda tilning ichki sofligiga rahna soluvchi, uning milliy go‘zalligi va jozibadorligiga putur yetkazuvchi xususiyatlari atroflicha tadqiq qilinmaganligi, o‘zlashma so‘zlarni qachon qabul qilish kerag-u, qachon muqobilini topish kerakligi borasida aniq ishlab chiqilgan usul, tamoyil, ilmiy faraz va ishlanmalarning yo‘qligi jihatidan, qolaversa, ikki qardosh tillar orasidagi hali mavjud bo‘lmagan qiyosiy tadqiq jihatidan ham ilmiy, ham amaliy ahamiyati juda katta ekanligini ko‘rish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, asosiy qism, to‘rt bob, o‘n uch fasl, umumiy xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 114 bet.

I BOB. DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR MASALASI. ULARNI O‘ZLASHTIRISH QOIDA VA TAMOYILLARI

1.1. O‘zlashgan so‘zlar tushunchasiga ta’rif. Uning mohiyati va ahamiyati

Har bir til o‘z taraqqiyoti davomida turli tillardan so‘z oladi, ichki va tashqi manbalarga ko‘ra boyiydi, lug‘at sathi tadrijiy ravishda kengayib, takomillashadi va shunga ko‘ra o‘z iste‘molchisiga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim qilish salohiyatiga ega bo‘lib boradi. Va bu har qanday rivojlanayotgan til uchun normal holatdir. Dunyoda biror til yo‘qki, boshqa tillardan so‘z olmagan, o‘zlashmalar hisobiga o‘z lug‘at sathini boyitmagan bo‘lsa.

“O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida mashhur tilshunoslardan L.P. Krisin, N.M. Shanskiy, A.V. Kalinin, M.I. Fomina, V.V. Akulenko va N. Sharopovlarning ishlariga tayangan holda so‘z o‘zlashtirish tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “O‘zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma’lum til elementlarining ko‘chishi, kirishidir”³¹. M. D. Stepanov va I. I. Chernishevlar esa so‘zlarning o‘zlashishi deb³², bir tildagi so‘zning ikkinchi tilga kirib kelishini, ularning o‘zlashish natijasi va ushbu jarayonning umumiy majmuini tushunadilar³³. Ma’lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so‘z tabiiy ravishda o‘zlashayotgan tilning fonetik, orfografik, grammatik chig‘irig‘idan o‘tadi. Bunda so‘z o‘qilishi, yozilishi va tuzilishi bo‘yicha o‘zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta’siri ostida qator o‘zgarishlarni boshidan kechiradi, qaysidir ma’noda qabul qilinayotgan til tizimi qonuniyatlariga, mazkur til tabiatiga ma’lum darajada bo‘ysunishiga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘zlashgan so‘zlar aslidan farqlanishi, talaffuzi, imlosi tamomila tafovutlanishi ham mumkin. O‘zbek tilshunosligida ushbu xususiyatlar turlicha tasniflanadi. Manbalarga³⁴ asosan so‘z o‘zlashish jarayonida quyidagi 7 xususiyat namoyon bo‘lishi lozim:

³¹ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.83.

³² *Muallif izohi*: manbada “so‘zlarning assimilyatsiyasi” atamasi ostida kelgan.

³³ Kosimova M. “The history of word borrowing process in the uzbek and english languages”// Proceedings of Online International Conference on Advances in Scientific Research and Developments Organized by Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, August 8th, 2020, – P. 105.

³⁴ *Muallif izohi*: aslida, ushbu ma’lumotlarni yozishda xalqaro va respublika miqyosidagi jurnal va konferensiya to‘plamlarida chop etilgan qator maqolalarga murojaat qilingan edi. Xususan, E.Xolmatova va M. Amonovlarning “O‘zlashma so‘zlarning o‘rganilishining tarixi va shu yo‘nalishda ish olib borgan olimlar” nomli <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/13435/9401>; U.Qodirovaning “O‘zbek tilida so‘z o‘zlashuvi masalalarining o‘rganilishi tarixi” nomli

1. O‘zlashma so‘z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo‘lishi.

2. Chet so‘z o‘zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.

3. So‘z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.

4. Chet so‘z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.

5. Chet so‘z uni qabul qiluvchi til so‘z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi.

6. Chet so‘z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:

a) o‘zlashma so‘z ma‘nosi aniq bo‘lishi;

b) o‘zlashma so‘z ma‘nosi uni qabul qilgan tilda differentsiatsiya qilingan bo‘lishi.

7. Chet so‘z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak³⁵.

“O‘zbek tili leksikologiyasi” (1981-yilgi nashr) kitobida mualliflar so‘z o‘zlashayotgan tilga kirgan bo‘lishi, ya‘ni o‘sha tilga singishi uchun quyidagi xususiyatlarni o‘zida namoyon qilishi kerakligini aytadi.

Bular:

1. O‘zlashgan so‘z uni qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

2. So‘z qabul qiluvchi til leksik-semantik sistemasiga bog‘langan, unga singishgan bo‘ladi.

3. O‘zlashgan so‘z xuddi o‘z so‘zdek tabiiy va aniq bo‘ladi, undan shubhalanish, uni boshqa so‘zlar bilan qorishtirish xavfi yo‘qoladi.

4. So‘z qabul qiluvchi til egasi bo‘lgan xalqqa xuddi o‘z so‘zidek tuyuladi. Uning yot element ekanligi sezilmaydi.

5. So‘z o‘zlashgan bo‘lsa, bu so‘zning tildan tezda chiqib ketish ehtimoli bo‘lmaydi. Bunday so‘zning “keraksizligi” haqida, uni tildan “chiqarish” haqida o‘rinsiz munozaralar bo‘lmaydi va boshqalar³⁶.

Aynan ushbu fikr e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan eng muhim nuqtadir. Demak, muallifning fikriga ko‘ra, tilga allaqachon singib ketgan, til mulkiga aylangan,

<https://wordlyknowledge.uz/index.php/PPSM/article/download/2733/4096/5069> maqolalarga. Ammo izlanishlarimiz natijasida ushbu maqolalarning 1981-yilda chop etilgan “O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobidan asl manbani ko‘rsatmasdan olinganligining guvohi bo‘lgach, ma‘lumotning asl manbasini keltirishni ilmiy etiket nuqtayi nazaridan to‘g‘ri deb topdik.

³⁵ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.85

³⁶ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.84.

tilning ichki qonuniyatlariga bo‘ysungan so‘zlarga “o‘zlashma so‘zlar” deyiladi va bunday so‘zlarni yod so‘z sifatida farqlash, uning tildagi muqobilini topish, uni tilning milliyligiga rahna soluvchi yod unsur sifatida lug‘at sathidan chiqarish zaruriyati tug‘ilmaydi.

Lekin shu o‘rinda savol tug‘iladi, o‘zlashmalar tilning ichki qonuniyatiga batamom bo‘ysunadi deyilganda nima nazarda tutilmoqda? Turkiy tillar qonuniyatiga qaraydigan bo‘lsak, so‘z boshida qator undoshlar kelishi mumkin emas. Vaholanki, *stakan, stol, stul, skotch, trolleybus, tramvay, traktor, krossovka, prorektor, professor, programma, grafika, grant, skripka, klassika* va h.k. kabi bir necha yuzlab o‘zlashma so‘zlar borki, bu qonuniyatga bo‘ysungan bo‘lsin. Umumturkiy tillar uchun eng xos jihat bo‘lgan singarmonizm hodisasi, aynan shu “quloqsiz” o‘zlashmalar hisobiga bugun deyarli tilimizda o‘z aksini topolmayapti, bizningcha. Shunday ekan, olimning ushbu fikrlari biroz so‘roq ostida turibdi deb ayta olamiz.

Rus tilshunosligida o‘zlashgan so‘zlar tushunchasi “*заимствование*” ya‘ni “*qarz olish, o‘zlashtirish*” atamasi otida keladi va rus tilidagi “qarz so‘zlar” rus adabiy tilining lug‘at tarkibini to‘ldirish vositasi sifatida, shuningdek, yangi obyekt va hodisalarni nomlash uchun ishlatilishi mumkinligi aytiladi³⁷.

“Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da “so‘z o‘zlashtirish” tushunchasining ta‘rifi quyidagicha keltiriladi: so‘z o‘zlashtirish – bu “chet tilining elementi (so‘z, morfema, sintaktik qurilma va boshqalar)ning bir tildan ikkinchi bir tilga til aloqalari natijasida ko‘chishidir, shuningdek, bir til elementlarining boshqa bir tilga o‘tish jarayoni hamdir”³⁸ deyiladi.

“Lingvistik atamalar lug‘ati”da esa so‘z o‘zlashtirishning quyidagi ta‘rifini uchratish mumkin: “Bu fransuz atamasi bo‘lib, bir tilning boshqa tilning elementini olish harakatini ham, olingan elementning o‘zini ham anglatadi. So‘z o‘zlashtirish *og‘zaki* – eshitish yoki fonetik so‘z o‘zlashtirish yoki *yozma* – kitob yoki grafik so‘z o‘zlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Leksik so‘z o‘zlashtirish (o‘zlashtirish) eng keng tarqalgan usul bo‘lib, sintaksisdagi, shuningdek, fleksiya va

³⁷ Дай И. “Заимствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/ <https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya>. – С. 1-2.

³⁸ В.Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.. М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 685.

talaffuzdagi bilvosita o‘zlashtirish kamdan-kam uchraydigan va biroz bahsli hodisadir”³⁹.

Ushbu ta’riflarga asoslanib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, so‘z o‘zlashtirish – bu iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa turdagi o‘zaro aloqalar natijasida bir tildan boshqa bir tilga til elementlarining ko‘chishidir. O‘zlashtirish og‘zaki yoki yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin. Leksema o‘zi o‘zlashayotgan tilga kirib borgach, uning fonetik tuzilishiga, morfologik va grammatik tizimiga moslashib, leksik-semantik ishlovdan o‘tadi. Boshqa tillardan nafaqat alohida so‘zlar, balki sintaktik va frazeologik iboralarni ham o‘zlashtirish mumkin.

O‘zlashmaning nutqda keng qo‘llanishi, ayniqsa, kollektiv nutqda qo‘llanishi prinsipial belgilardan biridir. So‘z kollektiv nutqda ishlatilmasa, kollektiv tomonidan tan olinmasa, U norma bo‘la olmaydi. Norma bo‘lmagan so‘zni o‘zlashma deb hisoblash mumkin emas⁴⁰:

Avvalo, olinma so‘zlar va neologizmlarni o‘zlashma so‘zlardan farqlab olish lozim. Olinma so‘zlar, shuningdek, yangilik bo‘yog‘i sezilib turuvchi, fan-taraqqiyotning yangi sohalari va kashfiyotlari sabab til sathiga kirib keluvchi yangi so‘zlar (neologizmlar) har doim ham o‘zlashma so‘z bo‘lavermaydi. U qachonki, til iste’molchilari tomonidan birdek ma’qullanib, jamoaviy bir tarzda qo‘llanila boshlangach, jamiyat tomonidan muayyan vaqt ichida uzluksiz ravishda qo‘llanilsagina, u o‘zlashgan so‘z maqomini oladi.

O‘zlashmalar xususiyatlari va ularning o‘zlashayotgan tilga qabul qilinib, unda mustahkam o‘rnashib, singishib ketishi borasidagi talablar tilshunoslar tomonidan deyarli yakdil bir tarzda ifodalanganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ammo chet so‘zlarning ular o‘zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik birliklarning qo‘llanilishi nazarda tutilib, ushbu obyektiv va zaruriy faktor o‘rganiladigan bo‘linsa, shu paytgacha qilingan ishlarda chet so‘zlar turlicha terminlar, differentsiatsiyalar ostida tahlil qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

1.2. Xalqaro tillarda o‘zlashgan so‘zlar va ularning o‘zlashtirilish tamoyillari

³⁹ Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов: Пер. с фр./ Предисл. В.А.Звегинцева. М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 104.

⁴⁰ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B. 85.

Bugun biz kundalik hayotimizda va odamlar bilan o‘zaro muloqotimiz jarayonida juda ko‘plab, zamonaviy fan kashfiyotlar va texnologiyalar nomlaridan foydalanamiz. Tabiiyki, bu texnologiyalarning aksariyatini chet tili so‘zlari tashkil qiladi. Bu paytda esa biz albatta o‘zlashma so‘zlarni qo‘llashga majbur bo‘lamiz. Ma’lumki, har bir tilning lug‘at tarkibi boyib borishining bir qancha yo‘llari mavjud. Ana shunday yo‘llarning biri bu boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashishidir. Bugungi kunda bu jarayonni boshidan o‘tkazmagan, faqat ichki imkoniyatlari bilan rivojlangan til mavjud emas. Ma’lum bir tilning hozirgi davr rivojida avvalo boshqa davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti asosida boshqa bir tilga tegishli bo‘lgan so‘zlar o‘zlashishi kuzatilmoqda. Har bir tilning o‘z rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi kuzatilgan. Mana shunday jarayonlarda jahon tillariga yangi so‘zlarning kirib kelishi o‘sha tillarning lug‘ati tarkibi boyishidan dalolat beradi. Jahon tilshunosligida tilning lug‘at tarkibining boyib borishining bir qancha yo‘llari mavjud.

1. Yangi so‘zlar yasalihi orqali (*So‘z yasalihi*)
2. Boshqa tillardan so‘z kirib kelishi orqali (*o‘zlashmalar*)
3. Mavjud so‘zlarning ma’nosi o‘zgarishi orqali (*ma’no ko‘chishi*)

4. Frazologik birikmalarning yasalihi orqali (frazologizmlar) Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘zlarning boshqa tillardan kirib kelishi lug‘at tarkibini boyishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zlashmalar shunday jarayonni anglatadiki, unda so‘zlarning bir qismlari yoki butun fraza bo‘lgan so‘zlar o‘zi boshqa tildan boshqasiga ko‘chib o‘tadi. Bunday so‘zlarning tilshunoslikda uchrashi bir tomondan “muloqot fenomenlarida”, ya’ni biron bir xalqning uzoq vaqtlar davomida til va madaniy aloqalarida ko‘rinadigan ikkinchi tomondan avlodlarning davomiy muhim iqtisodiy va madaniy guruhlariga qarab intilishida yoki ularning hududiy chegarada ikki yoki ko‘p tilligida ko‘rinadi.

Ingliz tilida so‘z o‘zlashuvi xususiyati. XV asrda ingliz tili qo‘lyozmalarida uni boshqa bir necha tillar xususan, lotin tili, fransuz va eski skandinavian tillari bilan aloqada bo‘lganligi haqida yozilgan. Bu manbalardan so‘z qo‘shilishi bir necha tarixiy sabablardan dalolat beradi. Rim sivilizatsiyasining katta ta’siri tufayli lotin tili Angliyada ta’lim va din tili sifatida uzoq vaqt foydalanilgan. Eski skandinavian tili IX-

X va XI asrning birinchi yarmida mahalliy aholiga tezda singishib ketgan, shuningdek, o'zlari bilan ilg'or feodalizm ya'ni yuqori ijtimoiy tizim haqidagi yangi tushunchalarni olib kelgan mustamlakachilar tili edi.

Boshqa mustamlakachilarning tili bo'lgan fransuz tili XI asrning o'rtalaridan XIV asrning oxirigacha yuqori tabaqa vakillari, maktab ta'limi va rasmiy hujjatlarning asosiy tili edi. Ingliz tilida o'zlashma elementlarni o'rganishda asosiy urg'u o'rta asrlar ingliz davrida mavjud bo'lgan qoidaga asoslandi. Keyingi davrlarda o'zlashmalar faqat yaqin yillardagi tadqiqotlarning maqsadi bo'ldi. O'zlashmalar oqimi uzluksiz va davomli bo'ldi. O'zlashmalarning eng katta miqdori fransuz tilidan kirib kelgan. Ular ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotdagi turli sohalarni tasvirlaydi.

O'zlashmalarning katta qismi ilmiy va texnik atamalardir. Ko'pchilik o'zlashma so'zlar odamlar o'rtasidagi aloqalar va ularning madaniyat darajasi haqida bizga aytadi. U shunga sabab bo'ladiki, o'zlashmalar tez-tez tarixning muhim hodisasi deb nomlanadi. Agar biz ingliz tilidagi o'zlashmalar ro'yxatini tekshirsak, ular ma'nosiga qarab guruhlanadi, shunda biz Angliyaning boshqa millatlar bilan aloqasi haqida ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kirita olamiz. Ba'zi bir o'zlashmalar aniq tarixiy holatlarning to'g'ri ta'sirini tushuntirib bera olmaydi, ular yangi narsa va g'oya bo'la olmaydi. Masalan, *air – havo, place – joy, brave – jasur* so'zlari fransuz tilidan o'zlashgan. Shuni ta'kidlash kerakki, sof lingistik xususiyatlarni ahamiyatli darajalari bilan o'rganilgan turli tillardan o'zlashmani umumiy tarixiy sabablari haligacha tadqiq qilinmoqda.

Ko'pgina o'zlashmalar faqat tarixiy hodisaga bog'liq emas, balki aloqamunosabatlarni xarakteri davomiyligi, shuningdek tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasiga aloqador. Tillar qanchalik yaqin va aniq bo'lsa ta'sir shunchalik chuqur bo'ladi. Ingliz tilida skandinavian va fransuz tili o'rtasidagi ta'sirni taqqoslash yaxshi baholangan. Eski ingliz tiliga yaqindan bog'langan skandinavian tillarini ta'siri ostida ba'zi guruh so'zlari bog'langan yoki bog'lanmagan tillardan o'zlashgan (*they, their, them* kabi olmoshlar); bir qancha skandinavian o'zlashmalari milliy so'zlardan yasalgandek tuyuladi (ularning o'zaki bir xil bo'lganligi uchun ular o'rtasidagi bog'liqlik osonlik bilan ko'rinadi), masalan, *drop - drip (scand), true - tryst (scand)*; Ingliz tilining grammatik tuzilishining rivojlanishida skandinavian so'zlarining ta'sir darajasi tezlashdi.

O‘zlashmalar tilga ikki yo‘l orqali kirib keladi: og‘zaki nutq orqali (odamlar o‘rtasidagi tez aloqa orqali) va yozma nutq orqali (kitoblar orasidagi bilvosita aloqa orqali). Og‘zaki o‘zlashmalar asosan tarixning dastlabki davrlarida sodir bo‘lgan. Yaqin yillarda yozma o‘zlashmalar muhim ahamiyat kasb etdi og‘zaki o‘zlashgan so‘zlar, odatda, qisqa bo‘ladi (*inch, mill, street*) va ular foydalanish jarayonida katta o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Yozma o‘zlashmalar o‘zlarining talaffuzi, tovush shakllarining ba’zi xususiyatlarini saqlab qoladi va ularning assimilatsiyasi uzoq va qiyin jarayondir⁴¹.

Rus tilida so‘z o‘zlashuvi xususiyati.

So‘z o‘zlashtirish rus tilida juda keng tarqalgan hodisadir. Uzoq vaqtlar mobaynida yangi hodisa va tushuncha nomlarini bildiruvchi chet so‘zlar rus tiliga kirib, lug‘atda muhim qatlamni tashkil etib bordi. Manbalarda rus tili lug‘at tarkibidagi ilk xorijiy so‘zlar eng qadimgi yozma yodgorliklarda qayd etilgani va yunon tiliga mansub bo‘lganligi aytiladi. Chet tillaridan qabul qilingan (o‘zlashgan) so‘zlar doimiy ravishda adabiy matnlarda, ommaviy axborot vositalarida va turli matbuot nashrlarida uchraydi. Shuningdek, ushbu so‘zlar zamonaviy yoshlar slengi va professional lug‘atning ajralmas qismidir. Zamonaviy rus tilida, ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra, o‘zlashgan so‘zlarning ulushi 4% dan 22% gacha yetadi⁴².

M.A. Breiter o‘z tadqiqotida chet tillaridan olingan so‘zlarning paydo bo‘lishining quyidagi sabablarini ta’kidlab o‘tadi:

- rus tilida yangi tushuncha nomining yo‘qligi (yangi realiya): *спонсор, дайджест, топ модел* va boshqalar;
- rus tilining kognitiv bazasida tegishli nomning yo‘qligi: *бренд, сканер, ноутбук* va boshqalar;
- stilistik ta’sirni ta’minlash zaruriyati;

⁴¹ Ermetova J, Bahodirova F. “Leksikologiya fanidan o‘quv uslubiy majmua” Urganch. 2014. – B. 114.

⁴² Дай И. “Займствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”<https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya>. – С 3.

➤ ilgari olmoshlar yordamida ifodalangan tushuncha (konsepsiya)ni yangi chet tilidagi soʻz bilan almashtirish: *reyting – kompaniyaning oʻziga xos turdagi roʻyxatdagi oʻrni*⁴³.

L.P. Krisinning taʼkidlashicha, soʻz oʻzlashtirish bir qator tashqi va ichki sabablarga koʻra kechadigan murakkab jarayondir. Turli xalqlar oʻrtasidagi yaqin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni olim tashqi sabab sifatida keltiradi.

L.P. Krisin tomonidan chet tildan oʻzlashgan soʻzlarning paydo boʻlishining ichki sabablari quyidagicha izohlanadi:

- tushunchani yanada oydinlashtirish, maʼnoviy tuslanish (semantik ottenka)larni farqlash, tushunchaning semantik tuzilishini soddalashtirish;
- soʻz oluvchi tilda tuzilish jihatdan oʻxshash soʻzlarning mavjudligi;
- ifodalanayotgan tushunchaning boʻlinmasligi bilan belgining boʻlinmasligiga moslashish tendensiyasi⁴⁴.

Rus tilidagi birinchi oʻzlashmalar VIII-XII asrlarda paydo boʻlgan boʻlib, slavyan boʻlmagan tillardan, xususan, skandinaviya (*вира, ябеда, клеймо, тиун, варяг, кнут, каперство*), fin-ugor (*навага, салака, акула, сиг, пурга, пельмени*) tillaridan kirgan edi. Ushbu oʻzlashmalarning aksariyati dengizchilik, baliqchilik va savdo aloqalari, shuningdek, shimoliy xalqlarning turmushining oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan va bevosita davrning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettirgan.

Oltin Oʻrda davri taʼsiri rus tiliga turkiy soʻzlarning jadal ravishda kirib kelishiga yordam berdi: xususan, *тюрьма, хан, башка, казна, караул* va h.k. soʻzlar kirib keldi. Turkiy soʻzlarning aksariyati rus tiliga shu darajada mustahkam kirib borganki, bugunga kunga kelib ular xorijiy soʻz sifatida qabul qilinmaydi ham hatto.

Pan-slavyan birligi davrida yunon tilidan (gresizm) soʻzlar rus tiliga faol kirib kela boshlagan. Shunday qilib, uy-roʻzgʻor buyumlarining baʼzi nomlari: *скатерть, фонарь, тетрадь, сахар*; diniy mazmundagi soʻzlar: *лампада, демон, икона, ангел, епископ* va boshqalar; ayrim ilmiy atamalar: *грамматика, алфавит, философия, математика, диалект* va boshqalar; hayvon va oʻsimliklarning nomlari: *свёкла*,

⁴³ Брейтер М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-русистов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 33.

⁴⁴ Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 27-34.

фасоль, буйвол va shu kabi boshqa soʻzlar yunon tilidan olingan. Keyinchalik yunon tilidan olingan oʻzlashmalar, asosan, fan va sanʼat sohasida (*логика, комедия, аналогия, хорей, психология, лексикон* va boshqalar) qoʻllanilgan⁴⁵.

Keyingi davrlarda esa lotin soʻzlari (lotinizmlar) rus tiliga katta taʼsir koʻrsatdi. Lotin soʻzlarining rus tiliga kirib borishi XVII asrdan boshlab qayd etilgan. Aksariyat lotinizmlar hayotning huquqiy, siyosiy va tibbiy sohalari bilan bogʻliq edi: *диктатура, республика, революция, конституция, зоология, медицина* va boshqalar shular jumlasidandir.

Rus tilining leksik tarkibiga yevropa tillari ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi, bu ayniqsa, XVIII asrda Pyotr I davrida sezilarli darajada boʻldi. Bunga sabab aynan shu davrdan boshlab jamiyatning turli sohalarida ilm-fanning faol rivojlanganligi va koʻplab yangi kashfiyot va islohotlarning jadal surat olganligida edi. Bu esa oʻz navbatida rus tilining leksik tarkibini yanada boyitishga yordam berdi. Xususan:

- nemis tilidan olingan soʻzlar: *прейскурант, бухгалтер, агент, лагерь, вексель, офицер, штраф* va boshqalar;
- golland tilidan olingan soʻzlar: *флот, флаг, рейд* va boshqalar;
- ingliz tilidan olingan soʻzlar: *мичман, шхуна, баржа, бриг* va boshqalar;
- fransuz tilidan olingan soʻzlar: *аксессуар, жабо, вуаль, беже, пюре, майонез, гурман, бисквит* va boshqalar;
- italyan tilidan olingan soʻzlar: *браво, аллегро, пианино, вилла, макароны* va boshqalar;
- ispan tilidan olingan soʻzlar: *серенада, гитара, мантилья* va boshqalar.

XX asrda fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot va ishlab chiqarish munosabatlariga oid xorijiy soʻzlar rus tilining leksik tarkibiga mustahkam kirdi: *анархизм, буржуазия, демократ, социалист, космонавт, губернатор, планетарий* va boshqalar shular jumlasidandir.

XX-XXI asrlar oxirida oʻz ona tilida soʻzlashuvchilar nutqida begona tildagi oʻzlashmalar sonining koʻpayishiga sabab boʻluvchi qator omillar, jumladan: mamlakatlar oʻrtasidagi savdo va madaniy aloqalarning koʻpayishi, xorijiy turizmning

⁴⁵ Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.

gullab-yashnashi, fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, kino sanoati va musiqa madaniyati ommalashishi kabi holatlar yanada jadallashdi. Bu davr juda ko'p professional (*printer, fayl, interfeys, dizayn, biznesmen* va boshqalar), iqtisodiy (*супермаркет, тендер, трейдер, менеджер, билборд* va boshqalar), sport (*бейсбол, бита, виндсёрфинг, армрестлинг* va boshqalar) atamalar. XX asrdagi barcha o'zlashmalarning to'rt dan uch qismidan ko'prog'i anglitsizmlar va amerikanizmlardan kelgan⁴⁶.

XXI asrda biz kompyuter texnologiyalari va Internet rivojlanishi bilan bog'liq yangi xorijiy tillar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar: *блогер, ангрейд, логин, чат, роуминг, хакер, таргет, гуглить, дедлайн, фейк, коуч, копирайтер* va boshqalar.

Ko'pgina o'zlashtirilgan so'zlar rus tilining leksik tarkibiga uzoq va mustahkam kirgan va shuning uchun uning so'zlovchilari tomonidan xorijiy sifatida qabul qilinmaydi, masalan: *враг, время, сахар, шоколад, танк, модель, кенгуру, спутник* va boshqalar. Ularning aksariyati ko'rsatilgan tushunchalarni (yoki hodisalarni) ifodalovchi yagona so'zlardir. Shuni ta'kidlash kerakki, qarzga olingan so'zlar orasida nafaqat chet ellik sifatida qabul qilinadigan, balki ularning ma'nosi rus tilida so'zlashuvchilar uchun har doim ham tushunarli bo'lmagan ko'plab so'zlar mavjud, masalan: *генезис, квота, эксклюзивный, оффшор, саммит, холдинг* va boshqalar.

Ko'p sonli xorijiy so'zlarning rus tiliga kirib borishi ham tilshunoslar, ham ona tilida so'zlashuvchilarni tashvishga solmoqda. Bu nutqda o'zlashmalarni qo'llash har doim ham o'rinli emasligi bilan izohlanadi. Ularning ko'pchiligi haqiqiy so'zlar va iboralarni almashtiradi va keraksiz ishlatadi. Bu muammo, ayniqsa, yoshlar orasida keskin. Yoshlar yangi xorijiy so'zlarni tezda o'zlashtirib olishadi va ularni kundalik nutqda doimiy ravishda ishlatishni boshlaydilar, garchi rus tilida bu so'zlarning sinonimlari mavjud va bu holatlarda qarz olish mutlaqo oqlanmasa ham. Masalan, *меседж (message) – сообщение; уикенд (weekend) – выходной; кринж (cringe) – стесняться, смущаться, испытывать неловкость, «испанский стыд»; краш (crush) – любимый, возлюбленный; лол (lol) – смех, смешной, ха-ха-ха, бугага;*

⁴⁶ Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304-307.

дэнсць (dance) – танцевать; фейк (fake) – подделка, фальшивка; тренд (trend) – тенденция, направление.

Shunday qilib, biz xorijiy soʻzlarni olish jarayoni rus tilining butun tarixiy rivojlanishi davomida doimiy ravishda sodir boʻlishini koʻramiz. Soʻnggi oʻn yilliklarda qarz olish quyidagi sohalarda faol qoʻllanilmoqda: siyosat, iqtisodiyot, moda va ommaviy madaniyat. Xorijiy soʻzlarni ishlatganda, ona tilida soʻzlashuvchilar nutq xatolariga yoʻl qoʻymaslik uchun ularning leksik maʼnosi va stilistik ranglanishini hisobga olishlari kerak. Shuni taʼkidlash kerakki, xorijiy soʻzlarni qoʻllash rus tilida chaqirilayotgan yangi konsepsiya uchun oʻxshash boʻlmaganda oʻrinli boʻlishi kerak. Rus tilining oʻziga xosligi va sofligini saqlab qolish uchun asossiz qarz olishdan qochish kerak.

Nemis tilida soʻz oʻzlashuvi xususiyati. Ushbu paragraf Zarifjon Kuvonovning mazkur mavzudagi ilmiy izlanishlariga tayangan holda yozilgan boʻlib, muallif oʻz maqolasida quyidagi adabiyotlardan⁴⁷ foydalanganligini aytib oʻtadi⁴⁸.

Oʻzlashmalar atamasi lingvistik hodisalarni bir tildan ikkinchi tilga oʻtkazishning barcha turlari uchun umumiy atama boʻlib, asosan kengroq maʼnoda ishlatiladi, yaʼni u nafaqat natijani, balki ushbu oʻzlashish jarayonini ham qamrab oladi. Oʻzlashish fenomenlarini til darajasiga qarab ajratish mumkin.

- fonetik-fonologik – fonemani import qilish, fonemaning pasayishi yoki fonemaning yoʻq boʻlishi,
- grammatik – soʻz yasash morfemalarini qabul qilishda va egiluvchan almashtirishda oʻz ifodasini topadigan,
- leksik-semantik – leksemalarni qabul qilish yoki koʻpaytirishdan iborat,

⁴⁷ Jumladan, Arakeljan S. Lexikologie des Deutschen. Universität Jerewan, 2017, Munske H. Fremdwörter in deutscher Sprachgeschichte. Integration oder Stigmatisierung. Hrsg. Gerhard, 2001, Tesch G. Linguale Interferenz. Theoretische, terminologische und methodische Grundfragen zu ihrer Erforschung, Tübingen, TBL-Verlag Narr, 1978, Muhr R. Eurospeak: Der Einfluss des Englischen auf europäische zur Jahrtausendwende. Frankfurt am Main, Langenscheidt, 2004 kabilar.

⁴⁸ Kuvonov Z. Nemis tili lugʻati tarkibidagi oʻzlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati// Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Google Scholar// www.carjis.org. ISSN:2181-2454. Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1.volume 1 issue 4/2021, – B.32.

➤ sintaktik, natijada o‘zlashma konstruksiyalari va gapda o‘zlashmalar tartibi paydo bo‘ladi⁴⁹.

Bundan tashqari, o‘zlashtirish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Chet tilidagi so‘zlarni tilga kirib kelishi fonostrukturada va ayniqsa, morfostrukturada tub o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin; o‘zlashtirilgan so‘zlar chet tilidagi so‘z yasash uslublariga yo‘l ochadi.

Tilshunoslik asosan leksik o‘zlashmalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq, chunki bu qarz so‘z o‘zlashishining eng keng tarqalgan shakli, shuningdek, so‘zlovchi tomonidan tan olinishi eng oson shakli. So‘zni shakllantirish va ma‘no o‘zgarishi bilan bir qatorda, bu so‘zlarning ifodalanishini topishning asosiy usullaridan biri va shu bilan til o‘zgarishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, leksik o‘zlashma so‘zlarning boshqa tildan olinishi, o‘z tilidagi so‘zlar begona qolipga ko‘ra shakllanishi yoki mavjudlarining ma‘nolari o‘zgartirilishidan iborat. Hozirgi kunda nemis tilining 500-600000 so‘zdan iborat butun lug‘at tarkibida taxminan 150.000 o‘zlashgan so‘zlardir, shuning uchun har uch nemis tilidagi so‘zdan kamida bittasi chet tilidan kirib kelgan so‘z hisoblanadi.

Tilshunoslik tarixi nuqtayi nazaridan nemislarning “qadimgi mahalliy aholisi”, ya‘ni german va hind-yevropa tillaridan “meros qilib olgan” ichki so‘zlar (mahalliy so‘zlar) salmog‘i anchayin ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hind-Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar qatlami butun hind-yevropa til oilasiga (uchun umumiy bo‘lib, masalan, *dt. neu, ngriech. néos, russ. novy, lat. novus, lit. Naujas*), nemis qadimgi meros so‘zlari, boshqa tomondan, faqat german sohasida aniqlash mumkin hind-yevropa tillari (masalan, *dt. Winter, engl. winter, schwed. vinter, got. vintrus*). Ushbu mahalliy so‘zlarning ko‘pchiligi vaqt o‘tishi bilan so‘z yasalishi orqali, kompozitsiyalar va boshqalar jarayonlar orqali hajmi ko‘payib borgan⁵⁰.

⁴⁹ Kuvonov Z. Nemis tili lug‘ati tarkibidagi o‘zlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati// Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Google Scholar// www.carjis.org. ISSN:2181-2454. Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1.volume 1 issue 4/2021, – P. 33.

⁵⁰ Kuvonov Z. Nemis tili lug‘ati tarkibidagi o‘zlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati// Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Google Scholar// www.carjis.org. ISSN:2181-2454. Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1.volume 1 issue 4/2021, – P. 34.

Rim davrida (miloddan avvalgi 50 – milodiy 500) yuqori nemis tili (ikkinchi) tovush siljishidan oldin birinchi lotin to‘lqini o‘zini namoyon qildi. O‘zlashmalarning o‘zlashishining eng muhim maydoni janubda Mayntsdan Quyi Reyngacha, Yuqori Reyn-Dunay-Alp tog‘lari esa nisbatan kamroq rol o‘ynagan. Shu vaqt ichida lotin tilidan 500 dan ortiq so‘z qabul qilingan. Ehtimol, lotin tilidan olingan eng qadimgi so‘z so‘zi Kaiser so‘zidir. Imperator Avgust (miloddan avvalgi 31-yildan eramizning 14-yiligacha) davrida rimliklar Alp va Dunay oralig‘idagi yerlarni bosib oldilar. Chegaradagi mahalliy aholi tezda Rim turmush tarzini qabul qila boshladilar. Ushbu davrda qabul qilingan so‘zlar, avvalambor, moddiy madaniyatning ma‘lum sohalari bilan bog‘liq. Va shu tariqa quyidagi sohalarda so‘zlar o‘zlashdi.

Qadimgi Rim madaniyati va davlatchiligi asnosida bir qancha sohalarga so‘zlar kirib kela boshlagan. Aynan o‘sha davrlarda Rim imperiyasining davlat tili lotin tili bo‘lgan. Nemis tili lug‘ati tarkibini quyidagi sohalar boyitgan: qishloq xo‘jaligi (*Pflanze, ahd. pflanza, lat. planta. Wein, ahd. win, lat. vinum u.a.*), harbiy (*Kampf, ahd. kampf, lat. campus, Wall ahd. wal, lat. vallum u.a.*), qurilish sohasida (*Fenster ahd. venester; lat. fenestra, Kammer ahd. kamera, lat. camera u.a.*), savdo-sotiq va uy anjomlari (*Pfund, ahd. pfunt, lat. pundus, Tisch, ahd. tisc, lat. discus u.a.*). Lotin tilidan so‘zlarning kirib kelishi keyinchalik ham davom etdi, chunki bu til nemis tili so‘z boyligining ortishiga boshqa tillardan ko‘ra ko‘proq ta‘sir etgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Lotin tilidagi so‘zlar son jihatdan nafaqat nemis tili lug‘ati tarkibida, balki Yevropaning ko‘pgina tillari tarkibida ham salmog‘i anchagina. Chunki ko‘pgina tilshunoslar Yevoropaning qator tillarining “Bobo tili” sifatida lotin tilini e‘tirof etishadi. Keyinchalik V-VII asrlarga kelib Germaniya hududida xristian dinining kengayishi natijasida yana lotin tilidan din va cherkov an‘analari sohasiga (*Kloster lat. claustrum, opfern lat. operari u.a.*) oid so‘zlar o‘zlashdi. Lotin tili nafaqat din sohasi tili, balki u ilm-fan, ta‘lim va davlat boshqaruvi sohalari ham asosiy til hisoblangan⁵¹.

Shu nuqtayi nazardan har bir til lug‘at tarkibida o‘z so‘zlari bilan bir qatorda chetdan kirib kelgan begona so‘zlar kuzatiladi. Aynan shu xususiyatga ko‘ra

⁵¹ Z. Kuvonov Zarifjon Maxsiddin. “Die vorteile und nachteile der online-bildung”. Academic research in educational sciences 2.CSP1 conference 2 (2021): – P. 478-481.

leksikologiyada o‘z va o‘zlashgan so‘zlar tarkibi ajratiladi. Jumladan, o‘zbek tilida o‘z so‘zlari bilan bir qatorda fors-tojik, arab va internatsional so‘zlar ajratiladi.

O‘zbek tilidagi o‘z so‘zlari tarkibiga *tosh, tog‘, yer, bosh, suv, til, kul, kishi, bola, oq, qora, qizil, ko‘k, bir, ikki, uch, besh, men, sen, u, biz, kel, ol, bor, ildam, ilgari* va boshqalarni kiritish mumkin. Fors-tojik so‘zlariga esa *baland, osmon, oltob, bahor, barg, daraxt, xona, shamol, serob, shirin, mard, kamtar, mehribon, jonajon* va boshqalarni kiritish mumkin. Internatsional so‘zlarga *teatr, kino, konsert, film, kompozitor, shashka, fizika, matematika, voleybol, boks* va boshqalarni kiritish mumkin.

Chet el so‘zlarini o‘zlashtirish sabablari har xil va ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin.

1. Istak. Chet tili elementlarini qabul qilish aloqa talablari va ehtiyojlarini qondirish va donor tilida ma’lumotlarni ifoda etish istagi bilan bog‘liq. Chet tilidan biron bir so‘zni qabul qilishning eng muhim sababi bu *Sachentlehnung*lardir, ya’ni biron bir so‘z o‘zlashtirish jarayonida o‘sha so‘zning muqobil varianti yo‘qligi sababli ushbu so‘z boshqa tilga kirib keladi. Hatto til egalarining munosabati, ularning yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan donor tiliga bo‘lgan munosabati ham so‘zlarning o‘zlashishiga sabab bo‘ladi. Nufuzlilik omili nafaqat ikki tilda so‘zlashadigan so‘zlovchilarda seziladi. O‘zlashmalar ta’sir asosan tilda uzoq vaqt saqlanmaydigan leksik aralashuvlar shaklida taqdim etiladi. Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan beri AQShning iqtisodiy va siyosiy ta’siri ingliz tilini deyarli moda tiliga aylantirdi. Hozirgi kunda til ishtirokchilari o‘ziga xoslik, zamonaviylik va reklama samaradorligi hamda ekspert bilimlari to‘g‘risida signal berish uchun ko‘pincha chet tili elementlariga murojaat qilishadi. Bunda ular imidj bilan ishlashadi⁵².

Bundan tashqari, tilning o‘zining boshqa qonunlari mavjud. Tilshunoslikda so‘zni tejash ekonomika (so‘zlarni tejash) jihati orqali qisqa chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlardan foydalanishni boshlaydi. Masalan, Tempolimit o‘rniga *Geschwindigkeitsbegrenzung*; Bir bo‘g‘inli inglizcha so‘zlar bu yerda, ayniqsa, qo‘l keladi. Masalan, *job, set*. Ichki motivatsiyalangan so‘zlar yoki motivatsiyasi ma’nosiz, chalg‘ituvchi, noaniq yoki befarq bo‘lib qolgan so‘zlarni, motivatsiyali so‘zlar bilan

almashtirishga harakat qiladi. Masalan: *Backfisch durch Teenager*. Mahalliy soʻzlar uzoq muddatli foydalanish orqali oʻzlarining muhim maʼnosini yoʻqotadi, ular eskirgan tangalar singari susayadi va ishlatilishi pastroq boʻladi. Shunday qilib, eskirgan belgilarni doimiy ravishda almashtirib boriladi⁵³.

Xorijiy soʻzni yuqori deb hisoblaniladi va yuqori ijtimoiy asosga ega boʻladi, masalan, XVII – XVIII asrlarda fransuz tilidan qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi Onkel va Tante nemis tilidagi Oheim va Muheim (aslida “onaning singlisi”) soʻzlari oʻrniga oʻzlashgan. Oʻzlashmalar oʻzgartirish va ularni mavjud belgilar bilan belgilash dublikatlari sifatida koʻrinishi mumkin. Kommunikativ jihat uslubning oʻzgarishi bilan ifodalanadi: Lehngut ilgari mavjud boʻlmagan sinonimlarni ishlab chiqaradi. Masalan.: *Filmfest – Festival – Filmfestival*. Maqtash va tanbeh berish iboralari ayniqsa mashhur boʻlib, ular soʻz maydonini boyitishga olib keladi: Masalan: *nett, famos, süperbe, grandios*. Jurnalistika, shuningdek, adabiy til ham bunday olinmalardan keng foydalanadi. Boshqa bir misolda esa ataylab joylashtirilgan begona elementlar bilan qanday qilib maʼlum bir atmosferani yaratish mumkinligini koʻrish mumkin: Masalan: *Man erhält diesen Eindruck, wenn man vergleichsweise einen Blick in das Pub einer Londoner Vorstadt, in ein Bistro von Clignancourt, eine Trattoria in Ravenne, oder ein Drugstore in New Yorks Third Avenue wirft*⁵⁴. Oʻzlashmalar tarkibini turli xil usullar bilan boyitish mumkin. Bu erda keltirilgan tushuntirishlar oʻzlashmalarning oʻzlashish yoʻllarining terminologik rivojlanishining nemis tilida qanchalik keng tarqalganligini koʻrsatadi. Geografik nuqtayi nazardan oʻzlashmalarni bevosita va bilvosita (vositachilik) deb nomlangan ikki turga ajratish mumkin.

Jahon tillarida boʻlgani kabi nemis tiliga ham dunyoning qator tillarida soʻzlar oʻzlashgan. Nemis tiliga dastlab kelt tilidan soʻzlar oʻzlashganini koʻrishimiz mumkin. Soʻngra butun Yevropa boʻylab lotin tili hukmronlig oʻrnatila boshladi. Lotin tili Yevropa tillari uchun “Bobo til” ekanligi bejizga emas, albatta. Lotin tilidan soʻzlar oʻzlashishini uch davrga boʻldik.

⁵³ Зариф, Кувонов (2020). Немис тилига франсуз тилидан ўзлашган сўзларнинг структурал-семантик тадқиқи, XXI аср тилшунослиги ва таржимашунослигининг долзарб муаммолари: назария, амалиёт, инновация. – В.1-2.

⁵⁴ Зариф, Кувонов. Немис тилига франсуз тилидан ўзлашган сўзларнинг структурал-семантик тадқиқи// XXI аср тилшунослиги ва таржимашунослигининг долзарб муаммолари: назария, амалиёт, инновация. Toshkent: 2020. – В. 2-6.

1. G‘arbiy Rim imperiyasi davrida asosan bosqinchilik urushlari sababli
2. Xristianlashtirish – xristian dinini keng tarqalish natijasida
3. Gumanizm – ilm fan sohasidagi lotincha, internatsional so‘zlar Nemis tili lug‘ati tarkibidagi so‘zlari ulushi ko‘pligi bilan ajralib turadigan til bu fransuz tilidir. Fransuz tilidan so‘zlarning kirib kelishini ham olimlar uch davrga bo‘lishadi.

1.3. Turkiy tillardan chet tillarga, xususan, rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar va ularning o‘zlashish tamoyillari

Har bir xalqning lug‘at sathida nafaqat o‘z milliy tiliga tegishli so‘zlar, balki boshqa tillardan kirib, o‘zlashgan so‘zlar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Yuqoridagi tahlillarimiz orqali xalqaro tillar hisoblanuvchi ingliz, rus, nemis tillarining leksik sathi, undagi yod so‘zlar ulushi hamda boshqa tillarga o‘zlashganlik darajasi tahlil qilingan bo‘lsa, ushbu paragrafda o‘zbek tili (shartli ravishda turkiy tillar) ning nafaqat “oluvchi” balki “beruvchi” til sifatida ham ancha mahsuldor til ekanligini. Quyida biz turkiy tillar Lekin biz “o‘zlashma so‘z” deb ataydigan so‘zlar kelib chiqishi – etimologiyasi jihatidan o‘z tilimizdagi so‘z bo‘lib, boshqa tillarga o‘zlashgan.

Mana, bir misol. Mashhur tilshunos, german va turkiy tillar bilimdoni V.D. Arakinning (1904 – 1983) yozishicha, rus tiliga turkiy tillardan o‘tgan “*dostakan*” so‘zi “Igor jangnomasi” asarida qo‘llangan va “*tostakan/tustugan*” shaklida “*suv ichiladigan yog‘och idish*”ni ifodalagan. Keyincha bu so‘zdagi birinchi bo‘g‘in -do tushib qolib, u “*stakan*” shaklini olgan. Yana bir misol: *shish* — “*pufak*” so‘zi turkiy tillarning aksariyatida mavjud. Lekin XIV asrdan boshlab bu so‘z rus tilida “hech nima, hech narsa” ma’nosida “*shish poluchish*” iborasida qo‘llanib kelinmoqda.

Rus tilidagi ko‘pgina so‘zlar turkiy tillardan o‘zlashgan. Misol: *kazna* — turkiy “*g‘azna*”, arabcha “*xazina*”dan olingan. M.Fasmer tuzgan rus tilining etimologik lug‘atida bu so‘z turkcha xazna, qrim-tatar tilida xazna, deb berilgan. *Kaznachey* – *kaznachy/kaznatsy* – “*g‘aznachi*” ham shu so‘z asosida yaratilgan. Yoki rus tilida bash (“bosh”) so‘zi “boshqa” shaklida ham qo‘llanadi. Shu so‘z asosida “*boshma bosh*” – “*bash na bash*” so‘z birikmasi yasalgan. Slavyan tillarida, xususan, rus tilida *surguch* (“so‘rg‘ich” so‘zidan), *ochag* (“o‘choq” so‘zidan), *taz* (“tos” so‘zidan), *injir* (“anjir” so‘zidan), *izyum* (“uzum” so‘zidan), *chalma* (“salla” so‘zidan), *kaurdak*

(“qovurdoq” so‘zidan), *kurjun* (“xurjun” so‘zidan), *sharovar* (“sharvar” so‘zidan), *kamysh* (“qamish”so‘zidan), *kirpich* (“g‘isht” so‘zidan) kabi yuzlab so‘zlar qo‘llanib kelmoqda.

A.V.Mirtov tuzgan “Donskoy slovar”da don kazaklari shevalarida qo‘llanadigan turkizmlardan *kaymak* (“qaymoq”), *chiganok* (“chig‘anoq”), *malik* (“xo‘jayin”), *kavun* (qovun), *balik* (“baliq”; bu so‘zdan *balıchnik* – *baliqchi* so‘zi yasalgan), *kurgan* (“qal‘a”) kabilar ko‘rsatilgan.

Y.N. Shipova tuzgan “Slovar tyurkizmov v russkom yazıke” kitobiga besh mingga yaqin so‘z kiritilgan. Bu lug‘atda chak-chak, kayf, kinjal, kolbasa, kuraga kabi so‘zlar o‘zbek tilidan o‘zlashgan, deb ko‘rsatilgan. “Kuraga” so‘zi o‘zbek tilidan rus tiliga o‘zlashgani N.M.Shanskiy va boshqalar tuzgan “Etimologicheskiy slovar russkogo yazıka” kitobida ham tasdiqlangan.

Yarlik — “*yarlıg*” shaklida qadimiy uyg‘ur yodgorliklarida uchraydi, deb ko‘rsatadi S.Y.Malov. Bu so‘z qadimgi mo‘g‘ul tilida “*djarlik*”, hozirgi mo‘g‘ul tilida “*zarlık*” shakllarida uchraydi va rus tilida ko‘p qo‘llanadi. Baskak so‘zining o‘zagi “bas” deb ta’kidlaydi mashhur nemis tilshunosi G.Dyorfer. “*Bas*” asosiga *-gak* (*kak*) affiksi qo‘shilgan. “*Baskak*” so‘zini M.Fasmer o‘z lug‘atida chig‘atoycha *muhrdor* (*muhr bosuvchi*) ma’nosida qo‘llanishini yozgan. Mashhur turkiyshunos olim N.A.Baskakov o‘zining ism-sharifi turkiy so‘zdan olinganini faxrlanib aytardi.

Orda, o‘rda — “xon to‘xtaydigan joy”, “saroy” ma’nosini ifodalaydi. Bu so‘z rus tilidan tashqari mo‘g‘ul tilida “*ord* (*on*)” va buryat tilida “*ordon*” shakllarida uchraydi.

Alıy – “*ola*”, *kaurıy/kourıy* — “*qo‘ng‘ir*” so‘zlari asosida hosil bo‘lgan va ular rus hamda boshqa slavyan tillarida faol qo‘llanib kelmoqda. Bihi/behi aslida bigh o‘zagidan hosil bo‘lib, eramizdan avvalgi IV — VI asrlarda skif va sarmatlar tomonidan qo‘llangan. Keyincha “b” tovushi “p”ga o‘tgan, pigy shaklida turkiy tillarida qo‘llangan va fors tilida *pıhi* — behiga aylangan.

Atoqli o‘zbek tilshunosi professor Ayub G‘ulomovning merosi qiziqarli g‘oya va ma’lumotlarga juda boydir. Uning “O‘zbek tilida *-mon* affiksi” nomli maqolasida *-mon* o‘zbek adabiy tilida maxsus so‘z yasovchi affiks ekani ko‘rsatilgan. Turk tilshunosi B.Atalay shu affiks haqidagi asarida uning qadimda “odam” ma’nosidagi

mustaqil soʻz boʻlgani va u “manjur (mandjur)” soʻzi tarkibida borligi, ingliz tilidagi man (men — koʻplik shakli) — odam soʻzining bunga aloqasi borligini yozgan.

Bu fikrdan xabardor boʻlgan professor Ayub Gʻulomov shunday savolni oʻrtaga tashlagan: “Bu fikrning N.Y.Marrning ayrim asarlarida uchraydigan fantastik xarakterdagi etimologik yoritishlarga juda ham yaqinligi sezilib turadi: turkiy -man affiksi bilan inglizcha “man” soʻzining genetik aloqasi borligiga ishonib boʻlarmikin?”.

Taniqli oʻzbek tilshunosi professor Jamoliddin Boʻronov “Qadimiy ingliz tilida -man yarim suffiksi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida “man” soʻzi boshqa soʻzlar tarkibida oʻz mustaqil maʼnosini biroz yoʻqotib, odam va odamlarning jinsini, kasbini koʻrsatuvchi yarim suffiksga aylangan, deb yozadi: *human* (odam), *woman/women* (ayollar), *salesman* (erkak sotuvchi), *saleswoman* (ayol sotuvchi), *fisherman* (qassob) va hokazo. Jahon tillarida mustaqil soʻzlar affikslarga aylanishiga oid misollar koʻp.

Professor Ayub Gʻulomov yuqoridagi savolida akademik N.Ya.Marrning barcha tillardagi soʻzlar toʻrt elementdan yuzaga kelgan, degan fantastik farazini nazarda tutgan. Albatta, bu notoʻgʻri va noilmiy fikr. Lekin hozirgi davrda jahondagi barcha tillarni oltita oilaga birlashtiruvchi va ularni bir-biriga aloqador hisoblovchi tilshunoslik nazariyasi taxminicha man/men mon shaklida hind-yevropa tillaridan, xususan, fors, tojik, dari, pushtu tillari orqali german tillaridan turkiy tillarga oʻzlashgan boʻlishi mumkin⁵⁵.

Bob boʻyicha xulosalar

Maʼlumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi soʻz tabiiy ravishda oʻzlashayotgan tilning fonetik, orfografik, grammatik chigʻirigʻidan oʻtadi. Bunda soʻz oʻqilishi, yozilishi va tuzilishi boʻyicha oʻzlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari taʼsiri ostida qator oʻzgarishlarni boshidan kechiradi, qaysidir maʼnoda qabul qilinayotgan til tizimi qonuniyatlariga, mazkur til tabiatiga maʼlum darajada boʻysunishiga toʻgʻri keladi. Bunda oʻzlashgan soʻzlar aslidan farqlanishi, talaffuzi, imlosi tamomila tafovutlanishi ham mumkin. Oʻzbek tilshunosligida ushbu

⁵⁵ Abduazizov A. “Tillardan tillarga”// “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi. – Toshkent: 2013-yil 26-son, – B. 2-3.

xususiyatlar turlicha tasniflanadi. Manbalarga⁵⁶ asosan soʻz oʻzlashish jarayonida quyidagi 7 xususiyat namoyon boʻlishi lozim:

1. Oʻzlashma soʻz uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan boʻlishi.

2. Chet soʻz oʻzlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.

3. Soʻz uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.

4. Chet soʻz uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.

5. Chet soʻz uni qabul qiluvchi til soʻz yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi.

6. Chet soʻz uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:

a) oʻzlashma soʻz maʼnosi aniq boʻlishi;

b) oʻzlashma soʻz maʼnosi uni qabul qilgan tilda differentsiatsiya qilingan boʻlishi.

7. Chet soʻz uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak⁵⁷.

“Oʻzbek tili leksikologiyasi” (1981-yilgi nashr) kitobida mualliflar soʻz oʻzlashayotgan tilga kirgan boʻlishi, yaʼni oʻsha tilga singishi uchun quyidagi xususiyatlarni oʻzida namoyon qilishi kerakligini aytadi.

Bular:

1. Oʻzlashgan soʻz uni qabul qiluvchi til qonuniyatlariga boʻysunadi.

2. Soʻz qabul qiluvchi til leksik-semantik sistemasiga bogʻlangan, unga singishgan boʻladi.

3. Oʻzlashgan soʻz xuddi oʻz soʻzdek tabiiy va aniq boʻladi, undan shubhalanish, uni boshqa soʻzlar bilan qorishtirish xavfi yoʻqoladi.

4. Soʻz qabul qiluvchi til egasi boʻlgan xalqqa xuddi oʻz soʻzidek tuyuladi. Uning yot element ekanligi sezilmaydi.

⁵⁶ Muallif izohi: aslida, ushbu maʼlumotlarni yozishda xalqaro va respublika miqyosidagi jurnal va konferensiya toʻplamlarida chop etilgan qator maqolalarga murojaat qilingan edi. Xususan, E.Xolmatova va M. Amonovlarning “Oʻzlashma soʻzlarning oʻrganilishining tarixi va shu yoʻnalishda ish olib borgan olimlar” nomli <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/13435/9401>; U.Qodirovaning “Oʻzbek tilida soʻz oʻzlashuvi masalalarining oʻrganilishi tarixi” nomli <https://wordlyknowledge.uz/index.php/PPSM/article/download/2733/4096/5069> maqolalarga. Ammo izlanishlarimiz natijasida ushbu maqolalarning 1981-yilda chop etilgan “Oʻzbek tili leksikologiyasi” kitobidan asl manbani koʻrsatmasdan olinganligining guvohi boʻlgach, maʼlumotning asl manbasini keltirishni ilmiy etiket nuqtayi nazaridan toʻgʻri deb topdik.

⁵⁷ “Oʻzbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.85

5. Soʻz oʻzlashgan boʻlsa, bu soʻzning tildan tezda chiqib ketish ehtimoli boʻlmaydi. Bunday soʻzning “keraksizligi” haqida, uni tildan “chiqarish” haqida oʻrinsiz munozaralar boʻlmaydi va boshqalar⁵⁸.

Aynan ushbu fikr eʼtibor qaratishimiz lozim boʻlgan eng muhim nuqtadir. Demak, muallifning fikriga koʻra, tilga allaqachon singib ketgan, til mulkiga aylangan, tilning ichki qonuniyatlariga boʻysungan soʻzlarga “oʻzlashma soʻzlar” deyiladi va bunday soʻzlarni yod soʻz sifatida farqlash, uning tildagi muqobilini topish, uni tilning milliyligiga rahna soluvchi yod unsur sifatida lugʻat sathidan chiqarish zaruriyati tugʻilmaydi.

Oʻzlashmalar atamasi lingvistik hodisalarni bir tildan ikkinchi tilga oʻtkazishning barcha turlari uchun umumiy atama boʻlib, asosan kengroq maʼnoda ishlatiladi, yaʼni u nafaqat natijani, balki ushbu oʻzlashish jarayonini ham qamrab oladi. Oʻzlashish fenomenlarini til darajasiga qarab ajratish mumkin.

- fonetik-fonologik – fonemani import qilish, fonemaning pasayishi yoki fonemaning yoʻq boʻlishi,
- grammatik – soʻz yasash morfemalarini qabul qilishda va egiluvchan almashtirishda oʻz ifodasini topadigan,
- leksik-semantik – leksemalarni qabul qilish yoki koʻpaytirishdan iborat,
- sintaktik, natijada oʻzlashma konstruksiyalari va gapda oʻzlashmalar tartibi paydo boʻladi⁵⁹.

Bundan tashqari, oʻzlashtirish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bogʻliqdir. Chet tilidagi soʻzlarni tilga kirib kelishi fonostruktura va ayniqsa, morfostruktura tub oʻzgarishlarga olib kelishi mumkin; oʻzlashtirilgan soʻzlar chet tilidagi soʻz yasash uslublariga yoʻl ochadi.

Tilshunoslik asosan leksik oʻzlashmalarni oʻzlashtirish bilan bogʻliq, chunki bu qarz soʻz oʻzlashishining eng keng tarqalgan shakli, shuningdek, soʻzlovchi tomonidan tan olinishi eng oson shakli. Soʻzni shakllantirish va maʼno oʻzgarishi bilan

⁵⁸ “Oʻzbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.84.

⁵⁹ Kuvonov Z. Nemis tili lugʻati tarkibidagi oʻzlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati// Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Google Scholar// www.carjis.org. ISSN:2181-2454. Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1.volume 1 issue 4/2021, – P. 33.

bir qatorda, bu soʻzlarning ifodalanishini topishning asosiy usullaridan biri va shu bilan til oʻzgarishi uchun muhim omil hisoblanadi.



II BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHMALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI. ULARNI O‘ZLASHTIRISH QOIDA VA TAMOYILLARI

2.1. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashuvi masalasi va uning o‘rganilishi

“O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida tilshunoslaridan L. P. Krisin, N. M. Shanskiy, A. V. Kalinin, M. I. Fomina, V. V. Akulenko, N. Sharopovlarning ishlariga murojat qilingan holda so‘z o‘zlashtirish ta‘rifiga quyidagicha fikr bildiriladi: “O‘zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma‘lumtil elementlarining ko‘chishi, kirishidir⁶⁰”. M. D. Stepanov va I. I. Chernishevlar so‘z o‘zlashtirish deb, chet so‘zlarning tillarga kirib kelishi, ularning o‘zlashish natijasi va ularning umumiy majmuini tushunadilar.

Ma‘lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so‘z tabiiy ravishda o‘sha tilning fonetik, orfografik, grammatik elagidan o‘tadi. Bunda so‘z o‘qilishi, yozilishi va tuzilishi bo‘yicha o‘zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta‘siri ostida ayrim o‘zgarishlarni boshidan kechiradi, ya‘ni chet so‘zlar qabul qiluvchi til tizmiga ma‘lumdarajada bo‘ysunadi. Ular boshqacha yozilishi, ayrim harf va tovushlarning tushirib qoldirish yoki ortiqcha qo‘shib aytilishi, hatto shakli va qiyofasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. O‘zbek tilshunosligida bu xususiyatlar 7 xilga bo‘lib o‘rganiladi:

1. O‘zlashma so‘z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo‘lishi.
2. Chet so‘z o‘zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.
3. So‘z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.
4. Chet so‘z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.
5. Chet so‘z uni qabul qiluvchi til so‘z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi.
6. Chet so‘z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:
 - a) o‘zlashma so‘z ma‘nosi aniq bo‘lishi;

⁶⁰ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B. 85.

b) o‘zlashma so‘z ma‘nosi uni qabul qilgan tilda differentsiatsiya qilingan bo‘lishi.

7. Chet so‘z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak⁶¹.

Bu yuqorida nomlangan xususiyatlar borasida tilshunoslar yakdil, ya‘ni chet so‘z o‘zlashayotgan tilga qabul qilinib unda mustahkam o‘rnashib, singishib ketishi uchun quyidagi talablar bo‘yicha ular deyarli bir xil fikr bildiradilar. Ammo chet so‘zlarning ular o‘zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik birliklarning qo‘llanilishi nazarda tutilib, bu obyektiv va zaruriy faktor o‘rganiladigan bo‘linsa, shu paytgacha qilingan ishlarda chet so‘zlar turlicha terminlar, differentsiatsiyalar ostida tahlil qilinganini ko‘ramiz.

Chet so‘zmi yoki o‘zlashma? Bir tildan ikkinchisiga kirib kelib, chet so‘zning qay darajada qabul qiluvchi tilga o‘zlashib ketganligini aniqlash, ayniqsa ularni chat so‘z va o‘zlashmalarga ajratishning qiyin ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta‘kidlab kelinmoqda. Bu masala bilan birinchilar qatorida shug‘ullangan nemis tilshunoslari o‘zlashgan so‘zlarni “aniq qilib chet so‘z yoki o‘zlashma ekanligini farqlab berish ba‘zi bir sabablarga ko‘ra qiyin ekanligi”, “chet so‘zlar masalasi cho‘g‘ temir ekanligi, kimki unga qo‘l urmoqchi bo‘lsa, osongina barmoqlarini kuydirib olishi” mumkinligini uqdirishgan edi. Ta‘kidlangan qiyinchiliklarga, “ogohlantirishlarga” qaramay, tilshunoslikda o‘zlashgan so‘zlar klassifikatsiyasi bo‘yicha katta ishlar qilindi, ilmiy fikr-mulohazalar bildirildi⁶².

O‘zlashgan so‘zlar olimlar tomonidan, avvalo, ikki ko‘rinishda, yani chet so‘z va o‘zlashmalarga bo‘linib tahlil qilindi. Agar o‘zlashgan so‘z o‘zi qabul qilingan tilga singishib, fonetik, orfografik, grammatik jihatdan moslashib ketsa, uni o‘zlashma, begonaligicha qolaversa, uni chet so‘z deb nomlashning o‘zi kifoya bo‘lgan bu jarayon olimlar tomonidan turlicha izohlanildi⁶³.

Nemis olimi E.Vassersier XV asrgacha o‘zlashgan so‘zlarni “o‘zlashma”, 16 asrdan keyin kirib kelgan so‘zlarni “chet so‘zlar” deb olmoq kerak, - deydi. Rus tilshunosi A.P. Mayorov ham bu fikrni quvvatlaydi. U chet so‘zlarning nemis tilidagi

⁶¹ “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B. 85.

⁶² Xolmatova E., M.Amonov. “O‘zlashma so‘zlarning o‘rganilishining tarixi va shu yo‘nalishda ish olib borgan olimlar”// Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. Maqola. in-academy.uz/index.php/yo. – B. 30.

⁶³ Jumaniyozov A. “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari”. Toshkent 1982. – B. 19

leksik-semantik assimilyatsiyasi masalalarini o‘rganayotib: “Chet so‘zlar ostida nemis tiliga taxminan XV asrdan keyin kirib kelgan va o‘zlarining chet tillaridan kirib kelganligini (o‘qilishi, yozilishi va urg‘usi bilan) bildirib turuvchi so‘zlar tushuniladi”, – deydi. Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, E.Vassersier va A.Mayorovlar chet so‘zlar differentsiatsiya qilishda mezon qilib vaqtni olishgan va bir asrni belgilashgan. Fikrimizcha, bu kriteriya ishonarli emas, buning ustiga ko‘p chalkashliklar bilan bog‘liq. Birinchidan, bu masalada kelishib, yani bir asrdan u yog‘i o‘zlashma va bu yog‘i chet so‘z bo‘lsin deb klassifikatsiya qilib bo‘lmaydi. Zero, bu tillarning rivojlanishi va o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganishdan qochish demakdir⁶⁴. To‘g‘ri, biror tilga qarashli bo‘lgan so‘zning ikkinchi bir tilga o‘tib, unga moslashib ketishi uchun vaqt kerak.

Ammo biror asrni chegara qilib belgilash, til lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlarni, so‘z o‘zlashtirishning o‘ziga yarasha xususiyatlarini daraja-badaraja, tadrijiy o‘rganishdan ko‘z yumish yoki chetlab o‘tishni anglatadi.

Chet so‘zlarning o‘zlashuvi borasida XIX asr oxirlarida nemis olimi F.Miklozix tomonidan ikkinchi bir fikr o‘rtaga tashlangan. U yozadi: “Til tarixida ikki davr farqlanmog‘i kerak. Birinchi davrda boshqa til egalari bilan munosabat kam, so‘z o‘zlashtirish oz, til esa o‘zining ichki qonuniyatlariga zid bo‘lgan har bir jarayonga nisbatan o‘ta sezgir bo‘lgan, qabul qilingan chetki materiallarni o‘z qatlamiga moslashtirgan. Ikkinchi davrda esa, chet so‘zlar ko‘plab, yalpi ravishda kirib kela boshlagan, til begona ta’sirga o‘z sezgilarini yo‘qotgan, natijada qabul qilingan yangi material o‘z begona shaklini saqlab qola boshlagan”.

Fikrimizcha, F.Miklozix fikrida ilmiylik bor. Chunki so‘z o‘zlashuvi o‘zlashgan so‘zlar soni va hajmiga albatta va bevosita bog‘liq bo‘ladi. Lekin dunyo tillari rivojlanishining xarakterli xususiyatlaridan biri borki, u ham bo‘lsa tillarning tashqi ta’siriga nisbatan, ayniqsa, undan qabul qilinadigan so‘zlarni, iloji boricha, saylab olishga intiladi. Til xalqning hayotiy zarur, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ifodalovchi so‘zlarni tez qabul qiladi, o‘zlashtiradi va o‘ziga moslashtiradi.

Chet so‘z va o‘zlashmalarni aniq farqlashga harakat qilgan olimlardan yana biri V.Shmitdir. U qiziq, ammo qisqa va aniq fikr aytgan: “*O‘zlashgan so‘zlar deb,*

⁶⁴ Miklosich F. Uber Fremdworter. Archiv f ur slavische Philologie 1888 /11s. – P. 108.

tilga moslashib olgan, kelib chiqishini faqat etimologik tahlil orqaligina bilsa bo'ladigan so'zlarga aytiladi. Ular tilga tashqi ko'rinish, urg'usi va fleksiya bo'yicha moslashib olgan bo'ladilar. O'zlarining begona xususiyatini saqlab qolgan so'zlar esa chet so'zlar deb yuritiladi". Bu fikr yaqin-yaqinlargacha tilshunoslikda umumiy va keng tarqalgan fikr edi. Keyingi yillarda chet so'zlar har tomonlama (fonetik, morfologik, semantik jihatlardan) o'rganila boshlandi va yana ayrim qo'shimcha mulohazalar aytiladi.

O'zlashmalarni fonetik jihatdan o'rganan chek olimi B.Trnka chet so'zlarni 5ta fonologik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish kerakligini uqtiradi. B.Trnka izlanishni ingliz tili asosida qilib, quyidagi holatlarga tilshunoslar e'tiborini tortadi:

1. Ingliz tiliga xos bo'lmagan fonemalar borligi yoki tub so'zdagi fonema variantlari hisoblangan tovushlarning fonema sifatida qo'llanilishi;
2. Urg'usiz bo'g'inlarda unilarning shakli saqlanishi;
3. Ingliz tiliga xos bo'lmagan fonemalar birikuvi va so'zdagi fonemalar soni;
4. Fonologik zidliklardan morfologik foydalanish, masalan, urg'uning almashuvi yoki o'rni, tovushlarning almashuvi;
5. Ma'lum diftonglarning qo'llanilishi;

1950-yili E.Xaugen o'zlashgan so'zlarning morfologik tuzilishini o'rganish g'oyasini ilgari suradi. U chet so'zlarni uch guruhga ajratib tahlil qilishni tavsiya qiladi:

1. Morfologik o'zgarishsiz, o'zlarining manba tilidagi protipiga aynan o'xshash so'zlar.
2. Morfologik jihatdan qisman o'zgargan, manba tilidagi shakliga qisman o'xshash so'zlar.
3. Morfologik jihatdan to'la o'zgargan va semantik o'zlashmalar.

K.Xeller esa o'zlashgan so'zlar klassifikatsiyasida "so'zning yozilishi, aytilishi, unu o'zlashtirgan til egalariga tanishligi, o'zlashgan tilda yangi so'zlar yasay olish qobiliyati va yangi olgan suffikslariga qarab o'zlashgan so'zlar farqlanmog'i

kerak”, - deydi⁶⁵. Nemis olimining bu fikrini rus olimlaridan biri O.B. Shaxray quvvatlaydi va unga yaqin ikkinchi bir fikrni aytadi: “so‘z o‘zlashuvining chet so‘zlar va o‘zlashtirmalar guruhlariga bo‘lib o‘rganish yoki ularni o‘zlashgan yoki o‘zlashmagan deb nomlash masala mohiyatini aniq ocha olmaydi. Chet tillardan qabul qilingan so‘zlarni qay darajada shaklan yoki funksional, qay darajada morfologik, fonetik va orfagrafik moslashganini aniqlash va morfologik hamda aksentologik, harf-tovush mutanosibliigi hamda so‘z yasash va semantik xususiyatlarini farqlamoq kerak”.

2.2. Chet so‘zlarning o‘zbek tilshunosligidagi klassifikatsiyasi

Endi chet so‘zlarning o‘zbek tilshunosligidagi klassifikatsiya masalasiga kelsak, ular ikki katta guruhga bo‘lib o‘rganilib kelinmoqda:

1. O‘zlashma so‘zlar va o‘zlashmalar;
2. Qo‘llanma so‘zlar va qo‘llanmalar;

Qo‘llanma so‘zlar kommunikativ va stilistik funksiyasiga ko‘ra, o‘z navbatida, ya‘ni ikki tipga bo‘lib o‘rganiladi: 1) ekzotik leksika yoki ekzotizmlar; 2) kiritma so‘z va iboralar, ya‘ni chet til kiritmalari. Ikkinchi bir xil klassifikatsiya va ta‘rifni M. Mukarramov bildiradi: “Og‘zaki va yozma nutqlar orqali o‘tib, yangi tushunchalarni ifodalaydigan va lug‘atlarda qayd etiladigan til birikmalari o‘zlashgan... buning aksi yozma va og‘zaki nutq formalari orqali bir tildan ikkinchi bir tilga o‘tmagan, ya‘ni ma‘no va tushunchalarni ifodalamaydigan, lug‘atlarda qayd etilmaydigan o‘zga til birikmalari o‘zlashmagan so‘zlar sanaladi”⁶⁶. Chet so‘zlar klassifikatsiyasi, ularni chet so‘z va o‘zlashmalarga bo‘lib o‘rganish borasida aytilgan fikrlarni xulosalab shuni aytish mumkinki, tilshunoslar tilning bu obyektiv va zaruriy qonuniyatini turli davrda va turli nuqtayi nazardan turib tahlil qilganlar, ishlarida turlicha atama va terminlar qo‘llaganlar. Bu tabiiy hol. Chunki har bir tilning chet so‘zlarga munosabati ularni qabul qilishi va o‘ziga moslab olishi turlicha o‘ziga xos kechadi.

“O‘zbek tilshunosligida bu masalalarning o‘rganilishiga kelsak, chet so‘zlarning fonetik, morfologik xususiyatlari kengroq o‘rganiladi. Lekin ularning

⁶⁵ Xeller K. Das Fremdwort in der deutschen sprache der Gegenwart. Leipzig 1966. – B. 14.

⁶⁶ Mukkaramov M. Badiiy stilda o‘zlashmagan so‘zlarning qo‘llanilishi “O‘zbek tili va adabiyoti” 1979, 4-son. – B. 33.

mazmuni planida yuz beradigan o'zgarishlar, ya'ni chet so'zlarning semantik adaptatsiya masalasi hali jiddiy tadqiqotlar obyekti bo'lgani yo'q"⁶⁷.

Qo'shimcha qilib yana shuni aytish kerakki, tillarning o'zaro munosabati va so'z o'zlashuvi faqat og'zaki muomalada emas, balki qardosh va chet el adabiyotining mutolaasida va tarjimachilik faoliyatida ham keng miqyosda ishtirok etishni taqozo etadi. Bundan tashqari, o'zbek tili bilan yaqin aloqada bo'lgan tillarning o'zbek tili taraqqiyotiga ta'siri, o'sha tillardan "...o'zbek tiliga qabul qilingan so'z va formalar, ma'no va stilistik bo'yoqlarning miqdorida emas, balki o'zbek tilining o'z imkoniyatlarini ham aktivlashtirganida, ijodiy kuzatganida ham" ko'rinmoqda⁶⁸.

Bu masalalar o'zbek tilshunosligida anchadan beri olimlarimizning diqqatini o'ziga tortib keldi. Sharqshunos A. K. Borovkovning "O'zbek adabiy tili 1905-1917 yillarda" nomli yirik asarida olim so'z o'zlashtirilish masalalariga o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib katta e'tibor berdi: "...biron bir xalqning aqliy kamolatini aniqlash uchun uning tilini o'rganishning o'zi yetarlidir, agar tilda biror fan sohasiga oid sotsial iboralar bo'lsa bu fan ayni shu tilda gapiradigan xalq tomonidan yaratilgan deb komil ishonch bilan aytish mumkin. Va aksincha, agar biror bir narsa nomi mazkur xalqning o'ziniki bo'lmay, boshqa xalq tilidan olingan bo'lsa, demak, o'sha predmetning o'zi ham shu xalqda bo'lmagan"⁶⁹. M. Mirzayev, M. Po'latov, R. Doniyorov, I. Rasulov, G. Muhammadjonov va S. Akbarovlar o'zlarining yuqorida nomlangan ilmiy ishlarida rus tili va o'zbek tilining o'zaro aloqalarini atroflicha o'rganib chiqib, rus tili orqali tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan til birliklarini o'rganishni alohida ta'kidlashdi. Bu borada dastlabki ishlardan biri U. Usmonov va R. Doniyorovning "Ruscha- internatsional so'zlarning lug'ati" o'zlashma so'zlarning lug'aviy ma'nolarini talqin etishda katta voqea bo'ldi. O. Usmonov va Sh. Hamidovning "O'zbek tili leksikasi tarixidan" nomli asari chop etildi. Bu yirik tadqiqot XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o'zbek tili lug'ati tarkibida yuz bergan o'zgarishlarni, xususan rus tilining o'zbek tili taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritish masalasiga bag'ishlanadi.

⁶⁷ Qo'chqortoyev I. O'zbek tili leksik semasiologiyasi va uning aktual masalalari - "O'zbek tili va adabiyoti" 1982, 6-son. - B. 28.

⁶⁸ Shoabdurahmonov Sh. O'zbekistonda tilshunoslikni rivojlantirishning aktual muammolari - "O'zbek tili va adabiyoti" 1982, 5-son. - B. 4.

⁶⁹ Borovkov A. K. "O'zbek adabiy tili 1905-1917 yillarda". - Toshkent: 1940. - B. 24.

Qayd qilingan ishlarda asosan rus tilining o‘zbek tiliga ta’siri va hamkorligi masalalari o‘rganilgan. O‘zbek tiliga rus tili orqali G‘arbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan so‘zlar atroflicha o‘rganilmagan. O‘zbek tilshunosligi uchun “bu masalalar aktual bo‘lib, ularga ilmiy jamoatchilikning diqqat e’tiborini jalb qilish kerak. Ular ilmiy nazariy nuqtai nazardan hal etilib, o‘zbek tiliga chetdan kirgan so‘zlarning o‘zlashtirilishini tartibga tushirish lozim”. Bu esa, avvalo, so‘z o‘zlashuvi sabablarini o‘rganishni taqozo qiladi.

Masalaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishiga kelsak, bu borada ayrim fikr-mulohazalar bildirishga to‘g‘ri keladi. Avvalo, bu hodisaning nomlanishining “ismi jismiga monandligi” haqida. Tilimizdagi o‘zga qatlam elementlarini chet so‘zlar deb nomlanishi to‘g‘ri, chunki bu so‘zlar begona, yot, xorijiy tillardan bo‘lib, bizga sirtidan, chetdan kelganlar. Ammo ularning keyingi klassifikatsiyasi, ya’ni o‘zlashgan so‘zlar va o‘zlashmalar, qo‘llangan so‘zlar va qo‘llanmalar deb atalishi va mazkur guruhlarga bo‘linib o‘rganilishi e’tirozlidir. Ma’lumki, “o‘zlashma” so‘zi o‘zlashmoq va o‘zlashtirmoq felining o‘zagi va *-ma* yuklamasidan yasalgan bo‘lib, o‘zlashmoq so‘zi quyidagi ma’nolarga ega: 1. *O‘z kishisi bo‘lib qolmoq, juda inoqlashmoq.* 2. *Ongiga yetib bormoq, tushunarli bo‘lmoq; singmoq.*

O‘zlashtirmoq so‘zi esa quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi. 1. *O‘zlashmoq.* 2. *Foydalansa bo‘ladigan qilmoq, ishiga yaroqli holatga keltirmoq.* 3. *Boshqaga qarashli narsani o‘ziniki qilib olmoq, egallamoq.*

“O‘zlashma” termini ma’nosini *o‘zlashmoq* va *o‘zlashtirmoq* fe’llarining anglatadigan ma’nolari bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, u asosan birinchi va uchinchi punktlarga va qisman qolgan boshqa punktdagilarga ham to‘g‘ri keladi. Lekin har qanday chet so‘z o‘zi o‘zlashayotgan tilda qanchalik darajada “yaroqli va foydalansa bo‘ladigan qilinmasin”, qanchalik darajada “til egalari ongiga etib borib, ular uchun tushunarli bo‘lmasin”, qanchalik darajada “inoqlashib, singishib, o‘ziniki bo‘lib olmasin”, qanchalik darajada “shaklan va mazmunan o‘zgarmasin”, u etimologik jihatdan bari bir chet so‘zdir.

Tabiiyki, chet so‘z qabul qiluvchi til ta’siri ostida o‘zining aytilishi, yozilishi, so‘z yasash xususiyatlari va ma’no mazmunlarini, ozmi-ko‘pmi o‘zgartiradi. Shu o‘zgarishlar, chet so‘zni qabul qilayotgan tilning bevosita ta’siri ostida sodir bo‘lganligi sababli, uni o‘zlashtirayotgan tilga dahldor va uniki hisoblanadi. Demak,

chet soʻz biznikiga aylanmaydi, balki uning oʻzgargan imlosi, oʻzgargan talaffuzi, yangi soʻz yasash imkoniyati va yangi kasb etgan maʼnosigina oʻzlashgan boʻladi. Vaholanki, chet soʻzning bu yangi xususiyatlari uni oʻzlashtirayotgan tilning mahsulidir.

Shuning uchun tilda oʻzlashma terminining qoʻllanilishi, chet soʻzning u kirib kelgan til taʼsiridida yuzaga kelgan yangi sifat va belgilariga, yangi maʼno mazmunlariga aloqador boʻlishi kerak. Nainki, chet soʻzning oʻziga nisbatan, ayniqsa, u qabul qilinish jarayonida biron-bir oʻzgarishga uchramagan boʻlsa yoki uchramasa, endi uni oʻzlashdi, biznikiga aylandi, deb boʻlmaydi. U faqat oʻzi kirib kelgan tildagi avvaldan qoʻllanilib kelayotgan chet soʻzlar qatlamidan oʻrin olgan boʻladi, xolos. Zero, u aynan oʻzlashtirilmaydi, balki qabul qilinadi yoki kirib keladi.

Demak, *“oʻzlashtirish hodisasi, asosan soʻz oʻzlashtirishdan iborat”* emas, balki chet soʻzlarning imlo va talaffuzi, soʻz yasash xususiyatlari va maʼnolarini oʻzlashtirishdir. Endi qoʻllanma soʻz haqida. Bu terminlarga berilgan taʼrif, yaʼni ularning oʻzi qoʻllanilayotgan tilniki emasligi, faqat bu til matnlarida ishlatilayotganligining oʻzi qoʻllanma soʻzlar iborasini inkor qilib, ularni chet soʻzlar deyishni taqozo qiladi. Qolaversa, chet soʻzlarning ekzotikligi, yaʼni ularning uzoq mamlakatlarga xos boʻlib, boshqalarga gʻalati tuyulishi, qiziq urf-odatlarini anglatishi yoki ekzotik emasligining soʻz oʻzlashtirish masalalari bilan bevosita aloqasi kam.

Chet soʻzlarning qoʻllanilish sabablarini asosan funksional vazifalardan izlamoq kerak. Fikrimizcha, chet soʻzlar klassifikatsiya qilinganda, ularning qabul qiluvchi tilga qay darajada singishib ketganligi, yaʼni ularning aytilishi, yozilishi, yangi qoʻshimchalar olishi va soʻz yasay bilishi, maʼno oʻzgarishlari (koʻchma maʼnolar kasb etishi) kabi xususiyatlarni qay darajada oʻzgarib, oʻzlashib ketganligini farqlab oʻrganmoq kerak. Bular uchun asosiy mezon – chet soʻzlarning oʻzlashgan tillardagi oʻrni, til egalari uchun hayotiy muhim narsa va hodisalarni ifodalay olish kuchi, ularning qiziqish va ehtiyojlarini qoplay olish darajasi boʻlmogʻi lozim⁷⁰.

Shundagina chet soʻzlar koʻp qoʻllaniladi, tilning struktural-semantik qoidalariga tez moslashadi, qoʻshilib singishib ketadi va yana ravnaq topadi.

⁷⁰ Jumaniyozov A. “Oʻzbek tilidagi german tillari oʻzlashmalari”. Toshkent: 1982. – B. 25-26.

2.3. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashuvi xususiyatlari

Insoniyat ong-tafakkuri o‘ssishi, fan yutuqlarining globallasuvi va amaliyotga tez tatbiq etilishi, olamshumul ixtiro va texnologiyalarning ommaga tez va oson etib borishida tilga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib, tilshunoslar oldiga yangi va o‘z navbatida murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bunga til birliklarini paradigmalarga birlashtirish, tillararo sun‘iy intellektni shakllantirish kabi masalalar kiradi.

O‘zbek tilini nazariy jihatdan o‘rganish darajasi haqida fikr yuritilar ekan, o‘zbek tilshunosligining jahon tilshunosligiga qo‘shgan hissasini taniqli tilshunoslarimizning qilgan ishlari orqali bilib olishimiz mumkin. Biroq echimi kutayotgan muammolar ko‘p, hali qilinmagan ishlar yetarli. Bizga falsafiy kategoriya sifatida ma‘lumki, jamiyatda zarur bo‘lgan talabning qondirilishi uning davomiyligini ko‘rsatuvchi boshqa ehtiyojga yo‘l ochiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov davlat tili masalasini davlat ramzlari sifatida qarashga o‘z fikrini bildirib, milliy til va uning milliy mafkuradagi o‘rni masalasiga alohida e‘tibor qaratadi: “Jamiki ezgu xislatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z ruhini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan ayrilishi muqarrar”.

Ma‘lumki, til millatning ma‘naviyati bilan bevosita aloqadordir. Dunyo tillari orasida sof tilning o‘zi yo‘q ekan, ma‘lum bir tilning tarovati o‘z til so‘zlari hisobiga yashashi bilangina belgilanmaydi. Harakatdagi tillarning birini ikkinchisiga ta‘sir etib borishi til jarayoni uchun barqaror qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Tilning ma‘naviyat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligi nuqtayi nazaridan o‘zlashma so‘z va uning zamirida o‘zlashayotgan ma‘lum bir millat urf-odat va an‘analariga befarq qarab bo‘lmaydi.

Hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi so‘zlarning paydo bo‘lishi va kelib chiqishi turlichadir. Har bir til o‘z lug‘at tarkibi va grammatik qoidalariga ega bo‘ladi. Biroq xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalar tillarga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bu holat, tilning lug‘at tarkibida yaqqol seziladi. Barcha tillar singari o‘zbek tilida ham bu holat yuz bergan bo‘lib, buning natijasida tilimizning lug‘at tarkibida o‘ziga xos qatlam bilan birga boshqa tillardan o‘zlashgan qatlam ham ko‘plab uchraydi.

O‘zbek tili leksik taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ma’lum bir davr bosqichlari asosida o‘rganish mumkin. Turkiy til sifatida yuritilgan o‘zbek tili tarixan O‘rta Osiyo hududi xalqlari uchun bir necha asr mobaynida fors tili bilan bir vaqtda iste’molda bo‘ldi. Uzoq vaqtli muloqat natijasida til omuxtalashishi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham ta’sir qildi. O‘zbek leksik qatlamiga yangi so‘zlar, forsiy izofalar, iboralar, hattoki so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham kirib keldi. Bunday so‘zlar, avvalo, mavhum, keyinchalik ularning ko‘pchiligi o‘z qatlam so‘zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo‘lmas holatda o‘rinlashdi. Natijada o‘zlashma so‘zlar ko‘p asrlik nutq jarayonida sinonimik, antonimik, giponimik munosabatlarga kirishib ketdi.

O‘zbek tili leksikasida arabcha o‘zlashmali so‘zlar o‘ziga xos tizimga ega. Hozirgi o‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashma so‘zlar semantik tuzilishidagi o‘zgarishlar tilshunos olim T.Rahmonov tomonidan maxsus tadqiq qilingan. O‘zbek tili leksikasidagi ba’zi o‘zlashmalar poetik jihatdan boshqacha qiyofaga kirib, aslida, arabcha so‘z ekanligi unutiladi.

XIX - XX asrlarda jamiyat hayotida yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar tilda ham o‘z ifodasini topdi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashishi va so‘zlarning iste’moldan chiqish jarayonini yanada tezlashtirib yubordi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tilimizga faqat rus so‘zlari emas, balki ko‘plab inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha so‘zlar rus tili orqali kirib kelgan va leksikamizdagi ko‘p miqdordagi forscha-arabcha so‘zlar iste’moldan chiqib ketdi.

XX asr o‘zbek tilshunosligi uchun rivojlanish asri bo‘ldi. Ona tili darsliklarining yaratilishi, tilshunoslik nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishi, ilmiy jurnallarning nashr etilishi, ilmiy maqolalarning yozilishi, filologik lug‘atlarning chop etilishi o‘zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan ulkan meros hisoblanadi.

O‘tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar onggi, dunyoqarashi soddalikdan murakkablikka qarab o‘zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste’moldagi so‘zlari ham nutqiy rivojlanishda bo‘ldi. Shunga muvofiq zamonaviy lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchaydi⁷¹.

⁷¹ Baymatova B. G “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashma so‘zlarning ma’no taraqqiyoti” Qarshi. 2014. – B. 20.

O'tgan asr tilshunosligi borasida qilingan ishlar rus tilshunosligi bilan bevosita bog'liq. Birgina tilshunoslikning leksikografiya sohasini oladigan bo'lsak, mavjud lug'atlarning deyarli ko'pchiligi rus tili lug'atlari andazasida yaratiladi. Yaratilgan lug'atlar ilm-fan yutug'idir. Biroq bu lug'atlarning ayrimlari tilimizning ontologik xususiyati, milliy xalq madaniyati asosida qayta ishlab chiqishi zarur masala bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning 80-yillariga kelib o'zbek lug'atchiligi borasidagi ishlar susaydi, ilm-fan yangiliklari, leksikografiya sohasidagi nazariy ishlar amaliyotga tatbiq etilmadi, zamonaviy yangi lug'at turlari yaratilmadi, tilda mavjud lug'atlar mukammallashtirilib qayta ishlanmadi, yig'ilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmadi. Natijada o'zbek lug'atchiligi jahon lug'atchiligidan qolib ketdi. Aniqroq qilib aytganda, leksikografiyada keyingi davr o'zgarishlari to'xtab, bu sohada keskin o'zgarishlar shu davrdan so'ng kuchli sezilmadi.

Tilda so'z o'zlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning ma'lumbir tuzumdan yangi shaklga o'tish bilan bog'liqdir.

Ko'p asrlik taraqqiyotga ega bo'lgan o'zbek tili ko'plab tillarning o'zlashma so'zlari hisobiga boyimoqda va ko'plab tillarga o'z fondidan so'z berib kelmoqda. So'z o'zlashish jarayoni har bir tilga xos bo'lgan qonuniyatdir. Dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, ma'naviy sohalar asosida to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Hattoki hozirgi ingliz tilida ham o'zlashma qatlam so'zlari taxminan 60 foizdan ortiq ekanini manbalarda ta'kidlanadi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inglizcha so'zlarning o'zlashishi nafaqat o'zbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi rus, chechen va boshqa tillarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Biroq rus tili ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub shuning uchun ularda bu tilning ta'siri tilimizga nisbatan faolroq sezilishi mumkin.

O'zbek tiliga inglizcha o'zlashma so'zlarning o'zlashish yo'llari turlichadir. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan o'zbekcha nomlanishga ega bo'lmasa yoki o'zlashma so'z tushunchaning turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan o'zining ijobiy ta'siriga ega bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish yoki aynan o'zlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, *chat – suhbat, mani (money) – pul* kabi so'zlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechak yoki aholi e'tiborini tortuvchi

buyumlarda aks etadi. O‘zlashma so‘zning o‘zlashgan tilda sinonimi bo‘lsa, uning qo‘llanishi uchun turli sabablar mavjud. Ya‘ni, sinonim sifatida kirib kelgan so‘z tilda termin sifatida yashaydi, yoki uslubiy ma‘no ifodalovchi so‘z bo‘ladi. Ingliz va rus tillari bir til oilasiga mansub bo‘lganligi uchun inglizcha so‘zlarning rus tilida o‘zlashish jarayoni o‘zbek tiliga nisbatan faolroqdir. Tilshunos olimlar ta‘kidlaganidek, ko‘pchilik inglizcha o‘zlashmalar tilda, avvalo, muvaqqat xarakterga ega bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan okkazonal neologizmlar o‘zining ikki tillilik xususiyatini kengaytira boshlaydi. Hozirgi paytda gazeta, jurnal va teleko‘rsatuvlarda muxlislarni o‘ziga tortadigan mavzular nomi inglizcha so‘zlar va ularning urf-odatlarini bilan bog‘liq holatlar tez ko‘zga tashlanadi. Mashhur siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar ham o‘zlarining nutqlarida inglizcha o‘zlashmalarga murojaat qilib turishadi⁷².

Manbalarda so‘z o‘zlashishining ikki yo‘li borligi ta‘kidlanadi:

1. Jonli so‘z o‘zlashuv orqali so‘z o‘zlashtirilishi. Bunda boshqa til so‘zlari o‘zbek tiliga mahalliy aholining og‘zaki nutqi orqali o‘tadi. Masalan, ruscha *rami*, *klubnika* so‘zlari o‘zbek tilining jonli so‘zlashuvidan *rom*, *qulupnay* deb talaffuz qilingan, keyinchalik o‘zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o‘zlashgan.

2. Bosma manbalar orqali so‘z o‘zlashtirish. Bunda boshqa tilidagi matnning o‘zbek tiliga tarjima qilish yoki o‘zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so‘zlarini (ayniqsa, termin va atamalar) ishlatish orqali bo‘ladigan o‘zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet*, *gipotenuza*, adabiyotdagi *kulminatsiya*, *syujet* kabi terminlar, *ocherk*, *roman* kabi so‘zlar shu yo‘l bilan o‘zlashtirilgandir.

O‘zbek tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy o‘z ichki imkoniyatlari asosida o‘zga tillardan so‘z olish, eskirgan so‘zlarning chiqib ketishi kabi o‘zgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Xalqlarning o‘zaro madaniy, siyosiy aloqalari tillarning omuxtalashish holatiga sabab bo‘ladi. O‘zbek tili leksikasiga yangi so‘zlar, so‘z birikmalari, iboralar hattoki so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham kirib keldi. Bunday so‘zlar avvalo mavhum, keyinchalik ularning ko‘pchiligi o‘z qatlam so‘zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo‘lmas

⁷² Baymatova B. G “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashma so‘zlarning ma‘no taraqqiyoti” Qarshi. 2014. – B. 28.

holatda o‘rinlashdi. Buning sababi o‘zlashma so‘zlarning tilda ko‘p asrlik nutq jarayoni va til tizimidagi sinonimik, giponomik, bir so‘zning faollashuvi ikkinchi so‘zni passivlashishi jarayoni kabi munosabatlar hisobiga barqaror qolgan deyish mumkin. XIX-XX asrlarda jamiyat hayotida boshlangan o‘zgarishlar tilimizda ham o‘z aksini bera boshladi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashish va so‘zlarning chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo‘ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi kabi omillar asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so‘zlar, balki inglizcha, fransuzcha, italyancha va boshqa tillardan so‘zlar kirib keldi. O‘zlashma so‘zlar dastlab neologizm xarakterida bo‘lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi, xuddi o‘z so‘zidek, tabiiy va aniq bo‘lishi, fonetik qayta shakllanishi, grammatik singishi, so‘z yasash tizimida faol ishtirok etishi tufayli uning yot elementlari sezilmay qoladi.

Tilimiz leksik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi mustaqilik davri bilan bog‘liqdir. Jamiyatimiz har bir sohasida boshlangan tub islohatlar, xalqaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar ma’lumtil o‘zgarishlariga, tilimiz taraqqiyotiga yo‘l ochdi. Muhimi shundaki, bu davrga kelib, turli tillarga oid rang-barang soha so‘zlari kirib kelishi kuchaydi. Dunyo tillarini o‘rganish bilan birga ularning milliy-madaniy an‘analari, urf-odatlariga muvofiq tushuncha va so‘zlarning o‘zlashishi tilimiz lug‘at boyligini oshirdi.

Yuqoridagilarga muvofiq o‘zbek leksikasi taraqqiyotini ma’lum bosqichlar asosida davrlashtirish mumkin:

1. XV asrgacha turkiy tilga fors-tojik tilining ta’siri.
2. VIII-X asrlarda turkiy tilga arab tilining ta’siri.
3. XX asrda o‘zbek tiliga rus tilining ta’siri.
4. Istiqloldan so‘ng o‘zbek tiliga turli tillar, xususan, ingliz tilining ta’siri.

Ushbu jarayon, ya’ni tilimizda rus so‘zlari va u orqali kirgan internatsional so‘zlar ulushining ortishi bu bilan to‘xtab qolmay, vaqt o‘tgani sayin yana-da jadallashib, fan, sanoat, ishlab chiqarish va shu kabi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy sohadagi yangiliklar, o‘zgarishlar sabab yana-da til sathimizda mustahkam o‘rin egallab boraverdi. Ushbu davrda *gazeta, jurnal, stol, stul, ruchka, tok, avtobus, trolleybus, tramvay, teatr, roman, epopeya, epilog, programma, syujet, konsert, assambleya, assistent, geometriya, asteroid, kometa, bakteriya, semantika, generator, kompyuter, kaloriya, sistema, struktura, kvadrat, texnika, texnologiya, mashina, atom, yadro, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya, propozitsiya, sinonimiya, omonimiya, leksema, grammatika, morfema, spiral, stadion, infeksiya, inflyatsiya, punkt, parlament, palata* va shu kabi o‘zbekcha muqobilini topish va topganda ham bu muqobillarni faol qo‘llaniluvchi lisoniy sathga kiritish deyarli mumkin bo‘lmagan rus-internatsional so‘zlar qabul qilindi va ular neytral leksika maqomini oldi.

Faqatgina 90-yillarning boshiga kelib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va sovet hokimiyati parchalanib, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganligi sabab tilimizda rus so‘zlari o‘z ta’sirini birozga bo‘lsa-da, yo‘qota boshladi. Xususan, o‘z paytida juda faol qo‘llangan *rayon (tuman), oblast (viloyat), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), adres (manzil), spravka (ma’lumotnoma), snoska (havola), spravochnik (qo‘llanma), broshyura (risola), jyuri (hakam), injiner (muhandis), kalendar (taqvim), konferensiya (anjuman), leksiya (ma’ruza)*⁹⁸ va h.k. kabi so‘zlar muqobillariga muvaffaqiyatli tarzda almashtirildi. Lekin bu bilan ushbu so‘zlar milliyashtirildi, o‘zbekcha muqobillariga almashtirildi, degan mulohaza,

⁹⁷ Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 33-b.

⁹⁸ Abdurahmonov G’. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.

bizningcha, katta so‘roq ostida turibdi. Chunki aksariyat muqobillarni arab so‘zlari tashkil etdi.

Endilikda, rus so‘zlari ta’siri kamayganligi barobarida, davrga mutanosib ravishda ingliz so‘zlari “fathi” tilimiz milliyligiga rahna sola boshladi. Dunyoning etakchi mamlakatlari tili, umuman, bugun fan-texnologiya tili bo‘lib qolgan ingliz tili tilimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Va bu ta’sir yaqin o‘n yilliklarda sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, “Eski nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga 80 ga yaqin inglizcha o‘zlashmalar kiritilgan bo‘lsa, yangi nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 500 dan ortiq inglizcha o‘zlashma so‘zlar izohlangan. Shuningdek, O‘zbek tiliga o‘zlashgan inglizcha so‘zlarning izohli lug‘atida 350 dan ortiq so‘z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo‘llanilayotgan neologizmlar, “Ingliz – o‘zbek – rus axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug‘ati”dagi inglizcha o‘zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksemalar qo‘shilgan⁹⁹”ligining guvohi bo‘lish mumkin.

O‘zbek tili leksik tarkibi sofliğining davrlarga ko‘ra bundayin o‘zgarib turishi, yod so‘zlarning tilimiz sofliğiga bo‘lgan bundayin “xuruj”lari ko‘rib turganimizdek, har doim bo‘lgan. Shu o‘rinda “til sofliği” degan tushunchaning o‘zi ham biroz e’tirozli tushuncha ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Chunki dunyoda biror til yo‘qki, boshqa tillardan so‘z olmagan, o‘zlashmalar hisobiga o‘z lug‘at sathini boyitmagan va mutlaq sofliğini saqlab qola olgan bo‘lsa. Shu sababdan til sofliğini saqlash, uni yot so‘zlardan himoya qilish kerak, degan fikr-mulohazalar biroz konservativ ruh kasb etadi, bizningcha va bu amalda ilojsiz ham. Tarixdan bilamizki, bundayin harakatlar, ya’ni tilni begona so‘zlardan tozalash, uni milliylashtirishga urinishlar bizda azaldan turlicha ko‘rinish va tamoyillar asosida bo‘lsa-da, bo‘lib kelgan.

Xususan, professor Fattoh Abdullayev bu haqida o‘z mulohazalarini bildirib o‘tar ekan, “hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, qayta qurish jarayoni, tabiiy juda ko‘p va xilma-xil tushunchalarni vujudga keltirdi. Adabiy til leksikasi ana shu yangidan-yangi tushunchalarni, albatta, ifoda etib berishi kerak edi” deydi va bu o‘z tilimizdan tashqari, boshqa tillarning lug‘at boyligidan keng miqyosda foydalanishni

⁹⁹ Yo‘lchiyeva M., Abduxamidova S., Omonova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. Maqola. CARJIS. Volume 2, Issue 1/ 2022. 441-b.

taqozo qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu yo'lda o'z ichki imkoniyatlarimizdan foydalanish borasida ba'zan ortiqcha xatti-harakat natijasida sun'iylikka yo'l qo'yilganligini ham ta'kidlab o'tadi: "Ko'plab darsliklar muallifi va shoir Elbek bir vaqtlar 550 tacha so'z-terminlarni to'plab, avval "Turkiston" gazetasida (1923, 168-198), so'ngroq "Inqilob" jurnalida e'lon qilgan edi. Lug'atning kirish qismida muallif quyidagilarni yozgan edi: *"Bu lug'atni tuzishdan maqsad barcha chet so'zlarni tilimizdan haydab chiqarish va haqiqiy o'zbek atamalarini (terminologiyasini) yaratishdir. Lug'atni tuzishda biz jonli tilda qo'llanilayotgan so'zlardan foydalandik, hozirgi tilimizda bo'lmagan so'zlarni eski tilda yozilgan asarlardan oldik, qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, biz bunday so'zlarni o'zimiz sun'iy yasadik"*. "Chig'atoy gurungi" deb atalgan guruh vakillarining terminologiya yaratish haqidagi tasavvurlari ana shunday edi, – deydi olim va o'zbek tili leksikasini "tozalashga" urinish, hech shubhasiz, tilning umumiy rivojlanish tendensiyasini, taraqqiyot qonunlarini yaxshi tushunmaslikdan kelib chiqqan xatti-harakat edi¹⁰⁰" deya baholaydi.

Olimning ushbu fikrlarida jadidlarning oydinlanma harakatiga nisbatan mavjud hukmron davr keltirib chiqargan biroz noxolislik kayfiyati sezilib tursa-da, ammo ilmiy asos yo'q edi, deb ayta olmaymiz. Negaki, bu maqsad milliyat nuqtayi nazaridan qanchalar xayrli va ezgu bo'lib ko'rinmasin, ilmiy-lisoniy nuqtayi nazardan olib qaraganda tilning rivojlanish, taraqqiyot qonunlarini mensimaslik va uni zo'rma-zo'raki, majburiy bir tarzda muayyan bir qolipga tushirish bo'lib ko'rinaradi. Sun'iy ravishda "burab" chiqarilgan bunday "milliy hosilalar" jamiyat, til foydalanuvchilari tomonidan aksar hollarda mutlaqo qabul qilinmasligi esa, afsuski, hech kimga sir emas.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1989-yil 26-dekabrda farmoyishi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida tuzilgan va 2003-yilgacha o'z faoliyatini olib borgan Respublika atamashunoslik qo'mitasi¹⁰¹ va uning faoliyatini eslab o'tish o'rinli. Ushbu qo'mita atamalarni milliyalashtirishni maqsad qilgani holda bir nechta muqobilliklarni ishlab chiqib, jamoatchilikka taklif etgan edi. Jumladan: *"radio – ovoznigor; samolyot – tayyora, uchoq; jurnal – oynoma, oybitik; gazeta – ro'znoma, jarida; kafedra – minbargoh; avtobus – ko'pkursi; respublika – jumhuriyat,*

¹⁰⁰ Abdullayev F. "Til qanday rivojlanadi?". Risola. – Toshkent: "Fan". 1972, 24-b.

¹⁰¹ Abdurahmonov G'. "Muammolar hali ko'p". Maqola. "Sovet O'zbekistoni gazetasi". – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son. – B. 1-6.

*direktor – boshqon, mikrofon – ovoznigor; telefon – durovoz*¹⁰²” kabi so‘zlar uydurildi, ammo yakunda ushbu so‘zlarning “Atamalarni milliyalashtirish harakati”ga hech qanday aloqasi yo‘qligi ma’lum bo‘ldi. Chunki, birinchidan, bular majburlab hosil qilingan kompozitsion yasalmalar edi va eng muhimi, bularning o‘zi ham begona bir tilga mansub so‘zlar edi. Shunchaki, bir begona tildan kirgan so‘zni ikkinchi begona tilga almashtirishdek biroz mantiqsiz harakat esa tabiiyki, tilni milliyalashtirish siyosatida o‘zini oqlamasdi, til iste’molchilari tomonidan qabul qilinmasdi va amalda shunday bo‘ldi ham.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi qayta tashkil etildi. Komissiya oldidagi asosiy vazifalar etib:

- ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridagi tushuncha va atamalarning turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlash;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek, yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta’minlash;
- boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyon etkazmagan holda tahrir qilish;
- o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo‘llashning huquqiy muammolarini o‘rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash;¹⁰³ kabilar belgilandi.

Ushbu komissiya faoliyati to‘g‘risida xulosa berishga hali erta bo‘lsa-da, biroq komissiyaning oldida turgan vazifalar g‘oyat dolzarb va mas’uliyatli ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Ushbu komissiya faoliyatiga xolis bir kuzatuvchi mutaxassis sifatida quyidagicha taklif va tavsiyalar berishni istardik:

¹⁰² Nurmonov A., A. Sobirov A., N. Qosimova N. va b. qa.. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013. – B. 202.

¹⁰³ Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. <https://lex.uz/ru/docs/-4717157>

- avvalo, o‘zlashgan (chet tillaridan qabul qilingan) atamalarning yangi imlo va izohli lug‘atlarini ishlab chiqish lozim. Bu bilan ushbu atamalarning qo‘llanilishidagi turli ma‘noviy va imloviy tafovut hamda xatoliklarga barham berilishini ta‘minlash mumkin.

- Ikkinchidan, ushbu chet tilidan qabul qilingan atamalarga o‘zbekcha muqobillarni (alternaturalarni) ishlab chiqish bo‘yicha muayyan ishchi guruhi tashkil etilishi va ularning faoliyati jamoatchilik orasida yoritib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda ushbu ishchi guruh tomonidan taklif etiladigan muqobillarning talaffuz va tushunarliklik jihatlari ko‘ra afzallik darajasi baholab borilishi (so‘rovnom, anketa va sh.k. shakllarda) til foydalanuvchilarining bevosita ushbu jarayonga bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilishga, tegishli xulosalar chiqarish va jarayonning istiqbollik darajasini aniqlab borishga yordam beradi.

- Shuningdek, til sathiga kirib kelayotgan yangi tushuncha va atama nomlarini tilning ichki imkoniyatlari asosida qayta nomlashda sobiq atamashunoslik qo‘mitasi yo‘l qo‘ygan xatolardan xulosa chiqargan holda, iste‘molchi qabul qilishi qiyin bo‘lgan mujmal yasalmalardan xoli tarzda yangi so‘zlar hosil qilish va tilga oson singuvchi bunday muqobillar topishda jamoatchilik takliflarini so‘rash, bu boradagi tashabbus va harakatlarni rag‘batlantirib borish maqsadga muvofiq.

Bob bo‘yicha xulosalar

Yuqoridagi mulohazalarimiz bilan tilni milliyashtirish mutlaqo imkonsiz va yoki istiqboli so‘roq ostida turgan bir harakat deyish fikridan yiroqmiz. Shunchaki, tilni milliyashtirish uni majburiy bir tarzda izolyatsiyalash, uning o‘z foydalanuvchilariga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim eta olish salohiyatidan mahrum qilish evaziga bo‘lmasligi kerak deb hisoblaymiz.

Ya‘ni til genofondi qanchalik boy va turli-tuman bo‘lmasin, u muayyan vaqtlardan so‘ng til foydalanuvchilari tomonidan mazkur qo‘llanilayotgan til elementi sifatida, o‘sha tilga davrlar mobaynida turli tamoyillar asosida kirib, o‘rnashib qolgan, o‘z qatlamga aylanishga ulgurgan leksika sifatida qo‘llanila boshlashini (60 foizdan oshiqroq so‘zlari, aslida, boshqa tillarga mansub bo‘lgan ingliz tili¹⁰⁴ hamda qariyb teng yarmi arab va fors-tojik tillariga mansub, yoki mazkur tildagi unsurlar, qo‘shimcha va shu kabi boshqa quruvchi konstruksiyalar asosida shakllangan o‘zbek

¹⁰⁴ Ruzmetova G. “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmali iboralar”. BMI. – Urganch: 2015, 20-b.

tili bunga yorqin misoldir) hisobga olgan holda, bu tabiiy jarayonga sun'iy ravishda aralashishni, uni zo'rma-zo'raki, "burab chiqarilgan" va o'sha mavjud tushunchani to'laqonli ifodalab ham bera olmaydigan mujmal yasalmalar orqali milliyashtirishni u qadar to'g'ri harakat deb hisoblay olmaymiz.

Qaytaga tilimizning lug'at boyligini o'zlashgan so'zlar hisobiga yana-da kengaytirishni, faqatgina bu yo'lda "qanday bo'lsa, shunday olib qo'ya qoladigan tayyor iste'molchi" yo'ldan borishni emas, balki aniq qoida va tamoyillar asosida, keyinchalik imloda turli ikkilanish va farqliliklar keltirib chiqarmaydigan holatda o'zlashtirishni tilimizning rivoji hamda taraqqiyoti uchun to'g'ri va manfaatli jarayon deb hisoblaymiz. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, bu mulohaza tilda mutlaq muqobili mavjud bo'lgan, o'sha tushuncha yoki holatni to'laligicha ifodalab bera oladigan muqobillik (alternativlik) ka ega o'zlashmalarga taalluqli emas.

Fikrlarimiz yakuni o'laroq shuni aytmoqchimizki, tilni milliyashtirish bor so'zlarga qanoat qilib, tildagi yot so'zlarni majburan siqib chiqarish, ularning kirib kelishini sun'iy ravishda to'xtatish va yoki nazorat qilish hisobiga emas, balki muqobil ifodalarning mantiqli va to'g'ri shakllantirilishi hisobiga ro'y beradi. Chunki har qancha jon kuydirilmasin, minglab so'zlar uydirilmasin, ular iste'mol qilinmas ekan, yot so'zlardan tushunilish va talaffuzga ko'ra afzal ko'rilmas ekan, harakat nolga tengligicha qolaveradi. Iste'molchida u yoki bu so'zni tanlash huquqi doimo bo'lishi lozim. Shuningdek, rivojlangan til har qaysi holatda ham o'z foydalanuvchisiga xilmaxil variantlarni taqdim qilish salohiyatiga ega lug'at boyligiga ega bo'lishi kerak. So'zlarni qo'llashda milliylik yoki zamonaga mos qulaylikni tanlash esa har bir iste'molchining o'z shaxsiy tanlovi, yana ham to'g'rirog'i, tafakkur saviyasi belgilab beradigan jihat bo'lib qolaveradi.

IV BOB. O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARGA MUQOBIL QARSHILIKLAR TOPISH VA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNI TILNING LUG‘AT BOYLIIGIGA KIRITISH BO‘YICHA AMALIY TAKLIFLAR

Ushbu bob avvalida quyidagi fikrlarni aytib o‘tishni istardik. Til sathiga chuqur singgan so‘zlarni, allaqachon til mulkiga aylanib, jamiyatdagi insonlarning yoshi, mavqeyi, kasbidan qat’i nazar bir xil tushuniladigan va bir xil tarzda iste’mol qilinadigan o‘zlashmalarni muqobillashtirish qaysidir ma’noda zoe harakat, o‘zini oqlamaydigan bir tajriba demakdir. Ushbu bo‘lim mazkur tadqiqot ishimizning yakunlovchi, xulosalovchi, tajribalardan xulosa chiqarib amaliy taklif va tavsiyalar beruvchi qismi ekan, o‘zlashma so‘zlarni tilning ichki imkoniyatlari asosida muqobillashtirish jarayonini quyidagi yo‘sinda amalga oshirish to‘g‘riroq va samaraliroq bo‘ladi deb hisoblaymiz:

Nisbatan yangi tushuncha, voqelikni ifodalovchi, fan-texnika kashfiyotlari va ularga bog‘liq jarayon nomlari bo‘lgan o‘zlashmalarni tilning muayyan qoidalari asosida o‘z o‘zlashtirish, (bunda mavjud o‘zlashmaning fonetik, leksik, grammatik tabiati bizning ona tilimiz tabiatiga to‘liq bo‘ysunishi va bizning til qonun-qoidalariga moslab o‘zlashtirilishi lozim). Va albatta, bunday o‘zlashmalar darhol imlo va izohli lug‘atlarga kiritilishi, imlo va talaffuzda tafovutlar keltirib chiqarmasligi uchun o‘zlashmaning aniq, yakdil bir ko‘rinishi rasman tasdiqlanishi va ommaga lug‘atlar orqali taqdim qilinishi lozim.

Biror bir tushuncha, narsa, voqea-jarayon nomi bo‘lgan o‘zlashmalarni (olinma so‘zlar, neologizmlar va h.k.) tilda mazkur tushunchaning yuz foizlik muqobilini topish mumkin bo‘lgan taqdirda, mavjud tushunchani to‘laliligicha ifodalab bera oladigan, tasavvur va tushunilishda ikkilanish va anglashilmovchilik tug‘dirmaydigan muqobillariga (qarshiliklariga) almashtirilishi va o‘zlashmalarning (olinma so‘zlar, neologizmlarning ham) tildagi muqobillari lug‘ati ishlab chiqilishi va ommaga taqdim qilib borilishi lozim.

Tilga chuqur singib ketgan, til mulkiga aylanishga ulgurgan o‘zlashmalarni muqobillashtirish va lug‘at sathiga kiritishga urinish o‘rniga, nisbatan yangi kirib kelgan, til sathiga endi-endi o‘zlashayotgan so‘zlarni muqobillashtirishni ancha samarali va istiqbolli harakat deb baholay olamiz. *Avtobusni – ko‘pkursi, radioni –*

ovoznigor deya, bundayin mujmal va biroz mantiqsiz ifodalar bilan jarayon istiqbolini shubha ostiga qo'yish va tilni milliylashtirish siyosatiga odamlarimiz ishonchini susaytirish o'rniga, ularni mantiqli va to'g'ri ishlab chiqilgan muqobil ifodalar bilan jarayonga jalb qilish va ushbu tilni milliylashtirish jarayonini bir milliy harakat sifatida hamjihatlikda tashkil etish tilimiz oldidagi burchimiz, biz tilshunoslarning eng ustuvor vazifamiz, desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

4.1. Turk tili qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan muqobil ifodalar lug'ati

Hammamizga ma'lumki, til bizni o'zligimizga aylantiruvchi va millat qiladigan eng muhim elementdir. Shu jihatdan tilimiz haqida qayg'urish, uni yot so'zlar bosqinidan asrash, gullab-yashnashi va rivojlanishini ta'minlash turkiy tildan foydalanadigan har bir kishining burchidir. Ayniqsa, tildan o'z kasbining eng muhim quroli sifatida foydalanayotgan tilshunoslar, yozuvchi va shoirlar, matbuot xodimlari bu borada yanada sezgir va ehtiyotkor bo'lishlari kerak. Davlat va siyosat arboblari ham ibratli munosabat kutishga o'ylaymizki to'la haqlimiz.

Muhim faktlarga qaramay, so'nggi paytlarda tilimizga nisbatan umumiy befarqlik, loqaydlik kuzatilmoqda. Imlo va til xatolari, talaffuz xatolari har kuni ko'zimizni qichitadi, qulog'imizni tirnaydi. Bular ham yetmagandek, g'arbdan kirib kelayotgan so'zlar yovvoyi o'tdek tilimizni o'rab, tilimizdagi go'zal so'zlarni unuttirib, chiqarib yuboradi. Kun yo'qdiki, radiolarimiz, televizorlarimiz, gazeta va jurnallarimizda g'arbnig yangi so'zi chiqmasin. U yerdan xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga yetib borayotgan bu so'zlar epidemiya kabi tarqalib, bir tomondan tilimizni zaiflashtirsa, ikkinchi tomondan uning go'zalligini buzmoqda. 11.8.1983 yildagi 2876-sonli "Otaturk Madaniyat, Til va Tarix Oliy Tashkiloti Qonuni"ning 37-moddasida ta'kidlanganidek, "Barcha ilm-fan, san'at va texnik atama va tushunchalarga javob beradigan turkcha atama va tushunchalarni topish" vazifasi hali ham eng ustuvor vazifa sifatida qolmoqda.

Muassasamiz, qonun tomonidan yuklangan bu vazifalardan tashqari, turk tiliga nisbatan sezgir bo'lishimiz kerakligini hisobga olgan holda, ba'zi chora-tadbirlar haqida qaror qabul qildi. Shulardan biri xorijiy so'zlarga javob berish komissiyasining tashkil etilishidir. Turk tili va adabiyoti mutaxassislaridan tashkil topgan komissiya har

oy Fan kengashimiz a'zolari ishtirokida yig'ilib, avvaldan aniqlangan va ustida ishlagan so'zlarga taklif qilingan ekvivalentlarni muhokama qiladi va bir yoki bir nechta javob bo'yicha muzokaralar yakunida kelishuvga erishadi. Shunday qilib, tilimizga endigina kirib kelgan yoki kirib kelayotgan so'zlarga gohida yangi so'z topiladi, gohida lug'atimizda mavjud so'zlar aniqlanadi. Komissiya tomonidan qabul qilingan va kelishilgan so'zlar har oy jurnalimizda chop etiladi; tegishli muassasalar va ommaviy axborot vositalariga ham yuboriladi.

Tegishli muassasalar, ommaviy axborot vositalari, yozuvchi va shoirlar, ustozlarimiz, Otaturk ta'biri bilan aytganda, tilimizni "muqaddas xazina" deb bilgan barcha ziyolilarimiz mavzuga e'tibor qaratishlariga ishonchimiz komil¹⁰⁵.

¹⁰⁵ Prof. Dr. Ahmet B. ERCİLASUN. Türk Dil Kurumu Başkan. 29 Nisan 1998. (nutqidan olindi).

TÜRKÇE KARŞILIKLAR DİZİNİ

- A -

acayip : Eksantrik

ayakça : Pedal
ayırma : Triyaj
ayınle ilgili : Ritüel
aykırılık : Anomali

- B -

banyo kabini : Shower screen
basamak : Etap
başkalaşım : Metamorfizm
başkalaşma : Metamorfoz
başlık : Antet
başlıklı : Antetli
başlıksız : Antetsiz
bayağı : Kitsch
bayağılık : Kitsch
bayi : Corner
bayilik vermek : Corner vermek
belgegeçer çevirgesi : Faks modem
belirsizlik hâli : Volatilité
benzetim : Simülasyon
benzetimlik : Simülâtör
benzetim sineması : Simülasyon sineması
bezekli : İllüstratif
bezeme : İllüstrasyon
bezenti : Garnitür
bezeyici : İllüstratör
biçim deęişimi : Transfigürasyon
biçimleme : Figürasyon
biçimsel : Formel
biçimsel olmayan : Enformel
bilgi çarpıtma : Dezenformasyon

bilgilendirme	: Enformasyon
bindirim	: Remix
bir gecelik	: O/N (Over night)
birleşik	: Kombine
birleşim	: Kombinasyon
birlikte yaşama	: Cohabitation
bitirme tezi	: Lisans tezi
bitki aktarımı	: Transplântasyon
bitki nakli	: Transplântasyon
bitki varlığı	: Flora
boğumlanma	: Artikülâsyon
boyut	: Format
boyutlar	: Format
buharlı hamam	: Sauna
burgaç	: Türbülâns
buzlu çay	: Ice-tea
büküm	: Viraj
büyük mağaza	: Mega store

- C -

casusluk	: Espionnage
cilt	: Volüm

- Ç -

çağcıl müzik	: New age
çardak	: Pergola
çarpsına	: Crash-test
çaşıtlık	: Espionnage
çevirge	: Modem
çevre	: Periferi

çıkartma	: Sticker
çıkış işlemi	: Check-out
çıkış özeti	: Epikriz
çıkmalık	: Podyum
çırpıcı	: Mikser
çivileme	: Smaç
çivileyici	: Smaçör
çizgi	: Kulvar
çokgen	: Poligon
çözücü	: Dekoder

- D -

dağ yürüyüşü	: Trekking
dalış	: Plonjon
danslık	: Dansing
değişim	: Metamorfizm
değişken ölçü	: Eşelmobil
değişme	: Metamorfoz
deneme çekimi	: Casting
denetim bağı	: Bandrol
denetim noktası	: Check-point
denetim pulu	: Bandrol
deneyci	: Ampirist
deneycilik	: Ampirizm
deneye dayalı	: Ampirik
deniz tedavisi	: Thalassotherapie
derece	: Grado
derin dondurucu	: Deep-freeze
derin düşünme	: Meditasyon
dev şar	: Megapol
dev şehir	: Megapol
dış hissedar	: Outsider

4.2. Turk va o‘zbek tillari sathidagi mushtarak o‘zlashmalar

Abonent (tk. abone) – fransuzcha *aboner*. Abonomentdan foydalanuvchi shaxs-yoki muassasa bo‘lib, Turk tili qo‘mitasi ushbu so‘z uchun “*sürdürümcü*” so‘zini muqobil qarshilik sifatida taklif qilgan. Biz esa bu so‘zga muqobil ifoda sifatida *obunachi (mushtariy)* so‘zini taklif qilmoqchimiz.

Agressiv (tk. Agresif) – fransuzcha *agressif*. Bizning tilimizda psixologiya atamasi sifatida “ruhan va yoki jismonan zarar beruvchi, shikast yetqazuvchi” ma’nosida qo‘llanilayotgan “agressiv” so‘ziga javoban “tajovuzkor” so‘zini berishni lozim deb topdik. Turk tili qo‘mitasi ushbu so‘z uchun “*saldırgan*” so‘zini muqobil qarshilik sifatida taklif qilgan. Bundan tashqari, kontekstga ko‘ra *zararli, xavfli, shikastlovchi* so‘zlar ham ishlatilishi mumkin.

Akvalend (tk. Akualand) – fransuzcha *aqualand*. Bu lotincha “suv” ma’nosini bildiruvchi *aqua* so‘zi va “yer, maydon, mamlakat” ma’nolarini bildiruvchi *land* so‘zlaridan tuzilgan qo‘shma so‘zdir (rus tilidan olingan *akvapark aqua* – “suv” va *park “bog”*) so‘zi ham keng qo‘llaniladi). Bu hovuzning bir turini anglatadi. Turk tili qo‘mitasi ushbu so‘z uchun “*su bahçesi*” so‘zini muqobil qarshilik sifatida taklif qilgan. Biz esa ushbu so‘z uchun suv bog‘i ekvivalentidan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Akustik (tk. akustik) – fransuz *acoustique*. Bizning Kengashimiz bu so‘z uchun *aks-sado ilmi* ekvivalentlari mos keladi, degan fikrda, ya’ni “fizikaning tovush mavzusi bo‘lgan bo‘limi; tovushlarning yopiq joyda taqsimlanishi” degan ma’noni anglatadi.

Anaxronizm (tk. anakronizm) – fransuzcha *anachronizme*. Bu so‘z tilimizda “tarixga zid, zamonga mos kelmaydigan” ma’nosida qo‘llanadi. Turk tili qo‘mitasi ushbu so‘z uchun “*tarih yanılgısı*” so‘zini muqobil qarshilik sifatida taklif qilgan. Biz esa ushbu so‘zga tilimizdagi muqobil sifatida “*tarixiy nomuvofiqlik*” so‘zini berishni lozim topdik.

Anomaliya (tk. anomali) – fransuz *anomaly* tilimizda umuman olganda “ma’lum bir o‘lchov yoki qoidaga rioya qilmaslik holati”, psixologiyada esa “kasallik xarakterida bo‘lmasa-da, ma’lum darajada me’yordan chetga chiqish” ma’nosini

bildiradi. Ushbu bayonot uchun bizning Kengashimiz *mos kelmaslik* soʻzini taklif qiladi.

Antik davr (tk. antikite) – fransuz *antiquite*. Tilimizda “tarixda ilk asr, qadim zamon” maʼnosida keng qoʻllaniladigan bu soʻz uchun Boshqaruvimiz ham birinchi yosh ekvivalentini qabul qilgan. Soʻzning mavhum maʼnoda ishlatilishiga kelsak, antiklik soʻzi oʻrinli. Misol: Yaqin Sharq va Misrda bir asrdan ortiq olib borilgan qazishmalar tarixiy dunyoqarashimizni kengaytirdi va ming yillar davomida antik davr chegaralarini orqaga surdi.

Arxetip (tk. arketip) – fransuz *archetype*. Birinchi namuna, asl namuna, original model. Bu soʻz sanʼatning turli sohalarida ham qoʻllaniladi. U tilimizda “keyingi davrlarda rivojlanganligi maʼlum boʻlgan, hali oʻzining eng malakali shakliga yetmagan birinchi meʼmoriy element namunasi” maʼnosida ham tilga olinadi. Turk tili qoʻmitasi ushbu soʻz uchun “*ilk oʻrnek*” soʻzini muqobil soʻz deb hisoblaydi. Biz esa ushbu soʻzning tilimizdagi muqobili sifatida “*asl namuna*” soʻzini berishni lozim topdik. Misol: Yaxshi hikoya yaratish uchun bitta birinchi misolni koʻrib chiqish va ishlab chiqish kifoya.

Aromat (tk. aroma) – fransuz aromati. "Oʻsimlik ekstraktlari yoki moylaridan olingan yoqimli hid." Bu soʻzga yaqin maʼnoda tilimizda “xushboʻy” soʻzi ham bor. Yoqimli hid soʻzi xushboʻylik uchun mos ekvivalent boʻlganida bizning boshqaruv kengashimiz birlashgan edi. Sifatdosh ibora shaklida boʻlgan xushboʻy soʻz bir xil soʻzga asoslangan aromatik uchun ishlatilishi kerak. Misollar: sham alangasi ustiga xushboʻy suv bilan toʻldirilgan idish qoʻyiladi. Xushboʻy bugʻdan nafas olgan odam yangi odam sifatida oʻrnidan turadi.

Biz bu oʻrinda *ifor* soʻzini ham qoʻllashimiz mumkin.

Aromaterapi: Bu soʻz fransuz cha kelib chiqishi aroma (xushboʻy) va *thérapie* (davolash) soʻzlaridan iborat. Ilgari talassoterapiya soʻzini dengiz terapiyasi atamasi sifatida taklif qilgan Kengashimiz aromaterapiya uchun hid terapiyasi soʻzini taklif qildi.

Artikulyatsiya: fransuzcha artikulyatsiya. Tilshunoslikda qoʻllanilgan ushbu atama uchun Kengashimiz baʼzi tilshunoslar tomonidan ham qabul qilingan *talaffuz*

soʻzining tegishli ekvivalent ekanligi toʻgʻrisida yakdil fikrga keldi. *Misol: Nutq darolarida fonetikaga, talaffuz masalalariga urgʻu beriladi.*

Avans (tk. avans): fr. *avance*. Tilimizda “oldindan qilingan toʻlov debitorlik qarzi hisoblanishi” maʼnosida qoʻllaniladi. Bizning kengash avans uchun avans vaʼdasi toʻgʻri javob ekanligini aniqladi. *Misol: Tergovchilarga navbatchilik qilishdan oldin biroz avans berildi.*

Oʻzbek tili uchun tilimizda oldindan mavjud boʻlgan *boʻnak* soʻzini toʻliq muqobil sifatida qoʻllashimiz mumkin.

Bariyer: fransuz baryeri. Boshqaruvimiz tilimizda “har qanday yoʻlni toʻsish uchun qurilgan toʻsiq; yoʻl chetidagi qoʻriq” degan maʼnoni anglatuvchi ushbu iboraga javoban “toʻsiq” soʻzini qabul qilgan. *Misollar: Men eshik oldiga keldim, bogʻga yoʻldan hech qanday toʻsiq yoʻq edi. Mashina toʻsiqlarga borib toʻxtadi.*

4.3. Gʻarb tilidan oʻzlashgan soʻzlarga oʻzbekcha muqobillar lugʻati

A

1. Abonent — 1.tarmoq foydalanuvchisi; 2. obunachi
2. Absolyut — toʻliq; mutlaq
3. Absorbsiya — soʻrilish; yutilish
4. Abstrakt — mavhum
5. Agitatsiya — tashviqot
6. Agent — maxfiy xodim, josus
7. Agentura — josuslik xizmati (tashkiloti)
8. Agrar — qishloq xoʻjaligi
9. Agressiya — tajovuz; hamla
10. Agressiv — tajovuzkor
11. Adaptatsiya — moslashish
12. Adekvat — yetarli darajadagi; meʼyoriy
13. Administrator — maʼmur; boshqaruvchi
14. Admiral — dengiz qoʻmondoni
15. Affiks — qoʻshimcha
16. Afisha — eʼlon
17. Aforizm — hikmatli soʻz
18. Akkaunt — hisob
19. Akkreditatsiya — tasdiqlash
20. Akt — 1. harakat; 2.dalolatnoma
21. Aktiv — faol
22. Aktual — dolzarb
23. Aksent — 1. urgʻu; 2. xorijiy talaffuz (*xorijiy tildagi talaffuz*)
24. Akustika — 1. tovushshunoslik; 2. tovush etarligi/imkoniyati
25. Akvarel — suv boʻyoq

26. Alternativ — 1. muqobil; 2. eng yaqin boshqa imkoniyat
27. Altruist — oliyjanob
28. Altruizm — oliyjanoblik; fidoiylik
29. Amplituda — tebranma kenglik (*m-n.*: ovoz tebranma kengligi)
30. Amyoba — soddajon¹⁰⁶
31. Analiz — tahlil
32. Analitik — 1. tahlilga asoslangan; 2. tahlilchi
33. Analog — o'xshash
34. Anarxiya — 1. hokimiyatsizlik; 2. tartibsizlik
35. Anketa — so'rovnoma
36. Antologiya — devon; to'plam
37. Anturaj — atrofdagilar; tevarak
38. Anomal — nuqsonli; nome'yoriy
39. Anonim — shaxsi noma'lum
40. Apatiya — befarqlik
41. Apparat — qurilma
42. Applikatsiya — parcha naqsh
43. Argument — dalil; asos
44. Arxiv — saqlovchi (*joy*);
45. Arxivlash — saqlash
46. Arxeolog — qadimshunos
47. Assortiment — xilma-xillik
48. Assotsiatsiya — birlashma
49. Aspekt — nuqtayi nazar; qarash, tomon
50. Avans — bo'nak

B

1. Baraban — doira
2. Barrikada — mudofaa to'sig'i
3. Barter — ayirboshlash
4. Baryer — to'siq
5. Biznes — tadbir; ish
6. Biznesmen — tadbirkor
7. Bilet — ruhsatnoma
8. Bifurkatsiya — ikkilanish (*ikkiga bo'linish bio.*)
9. Blokcheyn — ma'lumotlar ombori
10. Boss — boshliq; xo'jayin
11. Brifing — qisqa bayonet
12. Broshura — risola
13. Byuro — idora
14. Byurokratiya — idorachilik
15. Buxgalter — hisobchi
16. Bufet — 1. tamaddixona, emakxona; 2. idish javon

¹⁰⁶ Kompozitsiya usuli orqali yasalgan qisaltma; *sodda* va *jonivor* so'zining birinchi qismi – *soddajon*.

G

1. Gabarit — o'lcham
2. Gazeta — nashr
3. Garmoniya — uyg'unlik
4. Germetik — zich
5. Gipotetik — ehtimoliy
6. Golkipper — darvozabon
7. Gorizont — ufq
8. Gruppya — guruh
9. Gumanizm — insoniylik

D

1. Dayjest — sharh
2. Debat — bahs; munozara
3. Debitor — qarzdor
4. Devalvatsiya — qadrsizlanish
5. Degenerat — buzuq
6. Demonstratsiya — шествие, показ
7. Demonstratsiya — namoyish
8. Demontaj — ajratish
9. Denudatsiya — yoriqlanish
10. Denominatsiya — qayta nomlash
11. Desert — shirinlik
12. Destruktiv — vayronkor
13. Detal — tafsilot
14. Detsentralizatsiya — nomarkazlashtirish
15. Dialog — suhbat
16. Divergensiya — o'zgarish; tafovut
17. Diversifikatsiya — tarmoqlanish; o'zgarish
18. Direktor — boshliq; boshqaruvchi
19. Diskomfort — noqulaylik
20. Diskussiya — bahs; munozara
21. Dispozitsiya — joylashuv
22. Differentsiatsiya — farqlash; taqsimot
23. Dominant — peshqadam; bosh
24. Duel — yakkama-yakka kurash/ olishuv

K

1. Kamuflyaj — himoyalanih
2. Kvartal — 1. chorak; 2. mavze
3. Klassifikatsiya — tasniflash
4. Kolorit — bo'yoqdorlik
5. Kommersant — tijoratchi; sotuvchi
6. Kommersiya — tijorat

7. Kompensatsiya — ustama
8. Komfort — qulay
9. Konkret — aniq
10. Konkurent — raqobatchi
11. Konkurensiya — raqobat
12. Konkurs — musobaqa
13. Konstitutsiya — nizom
14. Konstruktiv — yaratuvchan
15. Konstruksiya — qurilish
16. Kontakt — aloqa; munosabat
17. Kontrakt — shartnoma
18. Konfidensial — himoyaviy
19. Konflikt — nizo
20. Konfrontatsiya — qarama-qarshilik; ziddiyat
21. Konsentratsiya — mo‘tadillashtirilgan
22. Konsepsiya — tuzilish
23. Korpus — sho‘ba
24. Korrektiv — tuzatilgan
25. Korrespondent — muxbir
26. Kvalifikatsiya — sifatlash; baholash

L

1. Legitim — qonun
2. Lider — etakchi; yo‘lboshlovchi; sardor
3. Likvidatsiya — yo‘q qilish
4. Lingvist — tilshunos
5. Lingvistika — tilshunoslik
6. Lifting — tortish

M

1. Maksimal — eng yuqori
2. Marka — 1. yorliq; 2.
3. Marshrut — yo‘nalish
4. Maska — niqob
5. Mashina — ulov
6. Menedjer (administrator) — boshqaruvchi
7. Menedjment — boshqaruv (*m-n., biznes boshqaruv*)
8. Metod — usul
9. Minimal — naimenshiy
10. Model — namuna
11. Modernizatsiya — yangilash
12. Motivatsiya — rag‘batlantirish; ruhlantirish

N

1. Navigatsiya — koʻrsatgich (qurilma)
2. Natural — tabiiy
3. Negativ — salbiy
4. Nyuans — 1. oʻziga xoslik; 2. jilo

O

1. Obyektiv reallik — javonib; asl borliq
2. Obyektiv — 1. taraf; 2. xolis
3. Odnotip — bir xil; turdosh
4. Oppozitsiya — teskari; qarama-qarshilik
5. Original — asl nusxa
6. Otel — mehmonxona

R

1. Radikal — muhofazakor
2. Rayon — tuman
3. Reaksiya — taʼsir
4. Realizovat — gavdalantirish
5. Reviziya — taftish
6. Revolyutsiya — inqilob
7. Regressiv — qoloq
8. Rezolyutsiya — qaror
9. Rezonans — otzvuk
10. Rezultat — sledstvie, posledstvie
11. Rekonstruksiya — qayta taʼmirlash
12. Relief — ochertanie
13. Renessans — qayta uygʻonish
14. Restavratsiya — qayta tiklash
15. Reforma — islohot
16. Ritual, seremoniya — obyčaj, obryad
17. Рынок — torg

S

1. Servis — xizmat koʻrsatish
2. Simpozium — anjuman
3. Simptom — alomat; belgi
4. Sintez — yigʻish; toʻplash
5. Sinxron — hamohang
6. Situatsiya — vaziyat, obstanovka
7. Sotsial — ijtimoiy
8. Sotsiolog — jamiyatshunos
9. Sotsiologiya — jamiyatshunoslik

10. Sponsor — homiy
11. Stabilnost — barqarorlik
12. Stagnatsiya — zastoy
13. Stimul — pobuditel
14. Stress — ruhiy bosim, potryasenie
15. Struktura — tuzilma
16. Subyektiv — ырфчышн
17. Sfera — soha

T

1. Televizor — oynayi jahon
2. Tematika — mavzu rang-barangligi
3. Termin — atama
4. Tip — xil
5. Tolerant — bagʻrikeng
6. Transformatsiya — evrilish
7. Turist — sayyoh

F

1. Fakt — asos; dalil
2. Faktologiya —
3. Fantaziya — hayolot
4. Federatsiya — birlashm
5. Forma — koʻrinish;
6. Format — oʻlcham, shakl; koʻrinish
7. Forum — yigʻilish
8. Fundamental — asosiy, poydevoriy

X

1. Xobbi — mashgʻulot

Sh

1. Shans — imkoniyat
2. Shef — bosh
3. Shkaf — javon
4. Shoping — xarid
5. Shou — tomosha

E

1. Egoist — xudbin
2. Ekonom — iqtisod

3. Eksperiment — tajriba
4. Eksploatatsiya — foydalanish
5. Embrion — homila
6. Emotsional — his-tuyg‘uli; ta’sirchan
7. Emotsiya — his-tuyg‘u
8. Epoxa — davr

Bob bo‘yicha xulosalar

Ushbu bo‘lim mazkur tadqiqot ishimizning yakunlovchi, xulosalovchi, tajribalardan xulosa chiqarib amaliy taklif va tavsiyalar beruvchi qismi ekan, o‘zlashma so‘zlarni tilning ichki imkoniyatlari asosida muqobillashtirish jarayonini quyidagi yo‘sinda amalga oshirish to‘g‘riroq va samaraliroq bo‘ladi deb hisoblaymiz:

Nisbatan yangi tushuncha, voqelikni ifodalovchi, fan-texnika kashfiyotlari va ularga bog‘liq jarayon nomlari bo‘lgan o‘zlashmalarni tilning muayyan qoidalari asosida o‘z o‘zlashtirish, (bunda mavjud o‘zlashmaning fonetik, leksik, grammatik tabiati bizning ona tilimiz tabiatiga to‘liq bo‘ysunishi va bizning til qonun-qoidalariga moslab o‘zlashtirilishi lozim). Va albatta, bunday o‘zlashmalar darhol imlo va izohli lug‘atlarga kiritilishi, imlo va talaffuzda tafovutlar keltirib chiqarmasligi uchun o‘zlashmaning aniq, yakdil bir ko‘rinishi rasman tasdiqlanishi va ommaga lug‘atlar orqali taqdim qilinishi lozim.

Biror bir tushuncha, narsa, voqea-jarayon nomi bo‘lgan o‘zlashmalarni (olinma so‘zlar, neologizmlar va h.k.) tilda mazkur tushunchaning yuz foizlik muqobilini topish mumkin bo‘lgan taqdirda, mavjud tushunchani to‘laliligicha ifodalab bera oladigan, tasavvur va tushunilishda ikkilanish va anglashilmovchilik tug‘dirmaydigan muqobillariga (qarshiliklariga) almashtirilishi va o‘zlashmalarning (olinma so‘zlar, neologizmlarning ham) tildagi muqobillari lug‘ati ishlab chiqilishi va ommaga taqdim qilib borilishi lozim.

Tilga chuqur singib ketgan, til mulkiga aylanishga ulgurgan o‘zlashmalarni muqobillashtirish va lug‘at sathiga kiritishga urinish o‘rniga, nisbatan yangi kirib kelgan, til sathiga endi-endi o‘zlashayotgan so‘zlarni muqobillashtirishni ancha samarali va istiqbolli harakat deb baholay olamiz. *Avtobusni – ko‘pkursi, radioni – ovoznigor* deya, bundayin mujmal va biroz mantiqsiz ifodalar bilan jarayon istiqbolini shubha ostiga qo‘yish va tilni milliyashtirish siyosatiga odamlarimiz ishonchini susaytirish o‘rniga, ularni mantiqli va to‘g‘ri ishlab chiqilgan muqobil ifodalar bilan

jarayonga jalb qilish va ushbu tilni milliylashtirish jarayonini bir milliy harakat sifatida hamjihatlikda tashkil etish tilimiz oldidagi burchimiz, biz tilshunoslarning eng ustuvor vazifamiz, desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.



XULOSA

Fikrlarimiz yakuni o'laroq shuni aytib o'tishimiz mumkinki, yuqorida biz sanab o'tgan maqsadlarga erishish va amaliy natija ko'rsatish uchun, avvalo, nazariy bilimlarni puxta o'rganish, mavzumizga doir shu vaqtgacha erishilgan natijalar va bu boradagi amaliy jarayon va turli davrlardagi lisoniy-ijtimoiy-siyosiy harakatlarni sinchiklab tahlil qilish va bular bo'yicha tegishli xulosalar chiqarish lozim edi. Va bu yo'lda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Ilmiy-nazariy ma'lumotlar yig'ildi, nafaqat qiyoslanayotgan o'zbek va turk tillaridagi manbalar, balki chet (Yevropa) tilshunoslari fikrlari ham o'rganildi;

2. O'zbek va turk tillari leksik sathidagi faol qo'llaniluvchi g'arb tilidan o'zlashgan so'zlar (o'zlashmalar)ni topildi. (Bunda manbalar etib, vaqti matbuot, internet nashrlari, shuningdek, o'zbek va turk tillarining eng so'nggi nashrdagi imlo va izohli lug'atlari olindi). Ularning o'zlashish jarayoni tahlil qilindi.

3. Saralab olingan o'zlashmalar leksik-morfologik jihatdan tahlil qilindi. Ularning talaffuz va qo'llanilish, shuningdek, nolisoniy omillar (madaniy, ijtimoiy-psixologik va b.qa) ga ko'ra afzallik va ustuvorlik jihatlari qisman bo'lsa-da, o'rganildi, shaxsiy fikr-mulohazalar va nazariyalar o'rta tashlandi.

4. Ushbu o'zlashmalar qiyosan tadqiq qilinayotgan o'zbek va turk tillaridagi muqobillari topildi (bunda turli yillarda "atamalarni milliyashtirish", "tilni yod so'zlardan tozalash" nomlari ostida kechgan jarayonlar ko'zdan kechirildi, undagi erishilgan "natija"lar asosiy instrument (vosita) sifatida olindi va o'zaro solishtirildi.

5. Ikki tildagi ayni o'zlashmalar va ularning taklif etilgan (yoki biz tomonimizdan taklif etiladigan) muqobil ifodalaridagi yasaliq va ma'no jihatdagi o'xshashlik va farqliliklar, tushunilish va talaffuzga ko'ra (o'zining qarshi tildagi muqobiliga ko'ra) afzallik va qulayliklari o'zaro qiyosan tahlil qilindi;

6. Tahlillar asosida ikki til uchun ham birdek, yoki umumiy ma'noda tushunarli bo'lgan (imlo va talaffuzdagi shartli farqlarni istisno qilgan holda albatta) muqobil so'zlar (g'arb tilidan o'zlashgan so'zlarga milliy qarshiliklar) lug'ati tuzildi va ilova tariqasida berildi; magistrlik dissertatsiyasi va ushbu lug'at asosida ilmiy-uslubiy qo'llanma yaratish bo'yicha dasturul-amal qilib olindi.

TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi qayta tashkil etildi. Komissiya oldidagi asosiy vazifalar etib:

- ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste‘molga kiritish;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridagi tushuncha va atamalarning turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma‘nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlash;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek, yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta‘minlash;
- boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyon etkazmagan holda tahrir qilish;
- o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo‘llashning huquqiy muammolarini o‘rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash;¹⁰⁷ kabilar belgilandi.

Ushbu komissiya faoliyati to‘g‘risida xulosa berishga hali erta bo‘lsa-da, biroq komissiyaning oldida turgan vazifalar g‘oyat dolzarb va mas‘uliyatli ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Ushbu komissiya faoliyatiga xolis bir kuzatuvchi mutaxassis sifatida quyidagicha taklif va tavsiyalar berishni istardik:

- avvalo, o‘zlashgan (chet tillaridan qabul qilingan) atamalarning yangi imlo va izohli lug‘atlarini ishlab chiqish lozim. Bu bilan ushbu atamalarning qo‘llanilishidagi turli ma‘noviy va imloviy tafovut hamda xatoliklarga barham berilishini ta‘minlash mumkin.
- Ikkinchidan, ushbu chet tilidan qabul qilingan atamalarga o‘zbekcha muqobillarni (alternaturalarni) ishlab chiqish bo‘yicha muayyan ishchi guruhi tashkil etilishi va ularning faoliyati jamoatchilik orasida yoritib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda ushbu ishchi guruh tomonidan taklif etiladigan muqobillarning talaffuz va

¹⁰⁷ Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. <https://lex.uz/ru/docs/-4717157>

tushunarlik jihatlariga ko'ra afzallik darajasi baholab borilishi (so'rovnom, anketa va sh.k. shakllarda) til foydalanuvchilarining bevosita ushbu jarayonga bo'lgan munosabatlarini tahlil qilishga, tegishli xulosalar chiqarish va jarayonning istiqbollik darajasini aniqlab borishga yordam beradi.

- Shuningdek, til sathiga kirib kelayotgan yangi tushuncha va atama nomlarini tilning ichki imkoniyatlari asosida qayta nomlashda sobiq atamashunoslik qo'mitasi yo'l qo'ygan xatolardan xulosa chiqargan holda, iste'molchi qabul qilishi qiyin bo'lgan mujmal yasalmalardan xoli tarzda yangi so'zlar hosil qilish va tilga oson singuvchi bunday muqobillar topishda jamoatchilik takliflarini so'rash, bu boradagi tashabbus va harakatlarni rag'batlantirib borish maqsadga muvofiq.

- Nisbatan yangi tushuncha, voqelikni ifodalovchi, fan-texnika kashfiyotlari va ularga bog'liq jarayon nomlari bo'lgan o'zlashmalarni tilning muayyan qoidalari asosida o'z o'zlashtirish, (bunda mavjud o'zlashmaning fonetik, leksik, grammatik tabiati bizning ona tilimiz tabiatiga to'liq bo'ysunishi va bizning til qonun-qoidalariga moslab o'zlashtirilishi lozim). Va albatta, bunday o'zlashmalar darhol imlo va izohli lug'atlarga kiritilishi, imlo va talaffuzda tafovutlar keltirib chiqarmasligi uchun o'zlashmaning aniq, yakdil bir ko'rinishi rasman tasdiqlanishi va ommaga lug'atlar orqali taqdim qilinishi lozim.

- Biror bir tushuncha, narsa, voqea-jarayon nomi bo'lgan o'zlashmalarni (olinma so'zlar, neologizmlar va h.k.) tilda mazkur tushunchaning yuz foizlik muqobilini topish mumkin bo'lgan taqdirda, mavjud tushunchani to'laliligicha ifodalab bera oladigan, tasavvur va tushunilishda ikkilanish va anglashilmovchilik tug'dirmaydigan muqobillariga (qarshiliklariga) almashtirilishi va o'zlashmalarning (olinma so'zlar, neologizmlarning ham) tildagi muqobillari lug'ati ishlab chiqilishi va ommaga taqdim qilib borilishi lozim.

- Tilga chuqur singib ketgan, til mulkiga aylanishga ulgurgan o'zlashmalarni muqobillashtirish va lug'at sathiga kiritishga urinish o'rniga, nisbatan yangi kirib kelgan, til sathiga endi-endi o'zlashayotgan so'zlarni muqobillashtirishni ancha samarali va istiqbolli harakat deb baholay olamiz. Avtobusni – ko'pkursi, radioni – ovoznigor deya, bundayin mujmal va biroz mantiqsiz ifodalar bilan jarayon istiqbolini shubha ostiga qo'yish va tilni milliyashtirish siyosatiga odamlarimiz ishonchini susaytirish o'rniga, ularni mantiqli va to'g'ri ishlab chiqilgan muqobil ifodalar bilan jarayonga jalb qilish va ushbu tilni milliyashtirish jarayonini bir milliy harakat sifatida

hamjihatlikda tashkil etish tilimiz oldidagi burchimiz, biz tilshunoslarning eng ustuvor vazifamiz, desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqoridagi mulohazalarimiz bilan tilni milliylashtirish mutlaqo imkonsiz va yoki istiqboli so‘roq ostida turgan bir harakat deyish fikridan yiroqmiz. Shunchaki, tilni milliylashtirish uni majburiy bir tarzda izolyatsiyalash, uning o‘z foydalanuvchilariga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim eta olish salohiyatidan mahrum qilish evaziga bo‘lmasligi kerak deb hisoblaymiz.

Ya‘ni til genofondi qanchalik boy va turli-tuman bo‘lmasin, u muayyan vaqtlardan so‘ng til foydalanuvchilari tomonidan mazkur qo‘llanilayotgan til elementi sifatida, o‘sha tilga davrlar mobaynida turli tamoyillar asosida kirib, o‘rnashib qolgan, o‘z qatlamga aylanishga ulgurgan leksika sifatida qo‘llanila boshlashini (60 foizdan oshiqroq so‘zlari, aslida, boshqa tillarga mansub bo‘lgan ingliz tili¹⁰⁸ hamda qariyb teng yarmi arab va fors-tojik tillariga mansub, yoki mazkur tildagi unsurlar, qo‘shimcha va shu kabi boshqa quruvchi konstruksiyalar asosida shakllangan o‘zbek tili bunga yorqin misoldir) hisobga olgan holda, bu tabiiy jarayonga sun‘iy ravishda aralashishni, uni zo‘rma-zo‘raki, “burab chiqarilgan” va o‘sha mavjud tushunchani to‘laqonli ifodalab ham bera olmaydigan mujmal yasalmalar orqali milliylashtirishni u qadar to‘g‘ri harakat deb hisoblay olmaymiz.

Qaytaga tilimizning lug‘at boyligini o‘zlashgan so‘zlar hisobiga yana-da kengaytirishni, faqatgina bu yo‘lda “qanday bo‘lsa, shunday olib qo‘ya qoladigan tayyor iste‘molchi” yo‘lidan borishni emas, balki aniq qoida va tamoyillar asosida, keyinchalik imloda turli ikkilanish va farqliliklar keltirib chiqarmaydigan holatda o‘zlashtirishni tilimizning rivoji hamda taraqqiyoti uchun to‘g‘ri va manfaatli jarayon deb hisoblaymiz. Shuni ta‘kidlashimiz lozimki, bu mulohaza tilda mutlaq muqobili mavjud bo‘lgan, o‘sha tushuncha yoki holatni to‘laligicha ifodalab bera oladigan muqobillik (alternativlik) ka ega o‘zlashmalarga taalluqli emas.

Fikrlarimiz yakuni o‘laroq shuni aytmoqchimizki, tilni milliylashtirish bor so‘zlarga qanoat qilib, tildagi yot so‘zlarni majburan siqib chiqarish, ularning kirib kelishini sun‘iy ravishda to‘xtatish va yoki nazorat qilish hisobiga emas, balki muqobil ifodalarning mantiqli va to‘g‘ri shakllantirilishi hisobiga ro‘y beradi. Chunki har

¹⁰⁸ Ruzmetova G. “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmali iboralar”. BMI. – Urganch: 2015, 20-b.

qancha jon kuydirilmasin, minglab soʻzlar uydirilmasin, ular isteʼmol qilinmas ekan, yot soʻzlardan tushunilish va talaffuzga koʻra afzal koʻrilmas ekan, harakat nolga tengligicha qolaveradi. Isteʼmolchida u yoki bu soʻzni tanlash huquqi doimo boʻlishi lozim. Shuningdek, rivojlangan til har qaysi holatda ham oʻz foydalanuvchisiga xilma-xil variantlarni taqdim qilish salohiyatiga ega lugʻat boyligiga ega boʻlishi kerak. Soʻzlarni qoʻllashda milliylik yoki zamonaga mos qulaylikni tanlash esa har bir isteʼmolchining oʻz shaxsiy tanlovi, yana ham toʻgʻrirogʻi, tafakkur saviyasi belgilab beradigan jihat boʻlib qolaveradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon hayot, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 484 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 104 b.
3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ilova. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. <https://lex.uz/ru/docs/-4717157>

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

O‘zbek tilida

1. Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 24-33-b.
2. Baranov M. A, Sorokov A. S., Abduazimov A. A. “Umumiy tilshunoslik”. T., 1979.
3. Baymatova B. G “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashma so‘zlarning ma’no taraqqiyoti” Qarshi. 2014.
4. Berdiyev X, Xo‘jayev T, Yo‘ldoshev B. “Umumiy tilshunoslik. T. 1990.
5. Ermetova J, Bahodirova F. “Leksikologiya fanidan o‘quv uslubiy majmua” Urganch. 2014. 16-24-b.
6. Jomolxonov H. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent “Talqin”. 2005.
7. Jomonov R. So‘z o‘zlashtirishdagi asosiy lisoniy omillar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2014. –№ 5.
8. Jumaniyozov A. “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari”. Toshkent 1982.
9. Nurmanov A. “O‘zbek tilshunosligi tarixi” T., 2002.
10. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013, 202-b.
11. Sayfullayev R., Mingleyev B., Boqiyeva G., Quranova M., Yunusova Z., Abuzalova M., “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent-2009.

12. Sobirov A. “O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish”. T., 2004.
13. Sobirov A. “O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish”. T., 2005.
14. Tursunov U., Muxtorov Sh., Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent “O‘zbekiston”, 1992.
15. Usmanov S. “Umumiy tilshunoslik” T., 1972.
16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikkinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matabaa-ijodiy uyi. 2023.
17. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikkinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matabaa-ijodiy uyi. 2023.
18. “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Darslik. “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1981, – B.79-92.
19. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. /A.Madvaliev tahriri ostida. 5 jildli. 2-jild. M-harfi. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

Rus tilida

20. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка: учебное пособие. /2-е издание, переработанное. – Москва: ФЛИНТА: Наука, 2012.
21. Брейтер М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-русистов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 33.
22. Боровков А. К., Изменения в области узбекской лектики и новый алфавит на основе русской графики. Известия УзФАН, № 7 1940.
23. Бородин. А.И. Число и мистика. – Донецк: Донбас, 1975. – 143 с.
24. Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.
25. В.Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.. М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 685.
26. Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304-307.

27. Дай И. “Заимствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya, – С. 1-2.

28. Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 27-34.

29. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов: Пер. с фр./ Предисл. В.А.Звегинцева. М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 104.

30. Топоров В. Н. К семантике троичности. – Москва. 1979; Членов М. Л. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах. – Москва. 1979. – 154 с.

31. Успенский Л. Слова о словах. – Москва. 1970. – 231 с.

Türk tilida

32. Doğan Aksan, Türkçenin Sözcükleri, Engin Yay., Ankara 1996. – S.126.

33. Zeynep Korkmaz, “Dilimizin Dünkü ve Bu Günkü Sorunları ve Çözüm Yolları”, Türk Dili Üzerine Araştırmalar, TDK Yay., Nu:629, C.1, Ankara 1995. – S. 868.

34. Zeynep Korkmaz, “Batı Kaynaklı Yabancı Kelimeler ve Dilimiz Üzerindeki Etkileri”, Türk Dili Üzerine Araştırmalar, TDK Yay., Nu:629, C.1, Ankara 1995. – S.948.

